



O'QUV-USLUBIY MAJMUA

FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH

2025

FIZIKA VA
ASTRANO MIYA

MALAKA OSHIRISH MARKAZI:

SamDu Huzuridagi
PKQTVUMOMM



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“TASDIQLAYMAN”

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori A.Babayarov
“ ” 2025 yil

**“FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA
MODELLASHTIRISH”**

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**Qayta tayyorlash va malaka
oshirish kursi yo'nalishi:**

“Fizika va astronomiya”

**Tinglovchilar kontingenti:
pedagoglari**

Oliy ta'lif muassasalarining

Samarqand – 2025

Mazkur ishchi o‘quv dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: U.J.Saydullayev – PhD, dotsent.

Taqrizchi: J. Maximov – DSc, dotsent

O‘quv-uslubiy majmua Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 7-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

ISHCHI DASTUR.....	4
MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN	
INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	14
NAZARIY MASHG'ULOTLAR.....	18
AMALIY MASHG'ULOTLAR.....	90
GLASSARIY.....	112
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	121

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagи “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagи 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim sohasida erishgan yutuqlari hamda orttirgan tajribalari asosida “Fizika va astronomiya” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o‘quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik

yo‘naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o‘lchanadi. Demak, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta’lim amaliyatiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish” moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarini hal etishga qaratilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

O‘quv modulning maqsadi: pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

O‘quv modulining vazifalari:

- “Fizika va astronomiya” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minalash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minalash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Fizika va astronomiya” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minalash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish” modulini o‘zlashtirishda amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- ✓ kompyuterli eksperiment bosqichlarini;
- ✓ dasturiy ta’minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillarini;
- ✓ kodlarni tuzish: algoritmlar, o‘zgaruvchanlar, ma’lumotlar turlarini;
- ✓ dasturlar tuzishning dastlabki qadamlari, chiziqli algoritmlar va oddiy misollarini;
- ✓ tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishslash misollarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- kompyuterda, modellashtirish uchun operatsion tizim tushunchasini bilish;
- Python redaktorlarini (Spyder, PyCharm, VS Code) o‘rnatish;
- munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishslash;

- sonli integrallash va differensial tenglamalarni sonli yechish usullardan foydalanish;
- teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash;
- grafiklar chizish usullari: matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va histogrammalarni chizish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ✓ sikllar yordamida summa va ko'paytmalarni topish;
- ✓ chala tarmoqli va to'liq tarmoqli algoritmlarni ahamiyatini ochib berish;
- ✓ python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom ettirish, sintaksisining asosiy qoidalarini qo'llash **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- mexanik harakatlarni modellashtirish va ularni visuallashtish usullaridan foydalanish **kompetensiylariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiylar", "Pedagogning kasbiy kompetensiylarini rivojlantirish" va "Astronomiya va astrofizikaning zamonaviy muammolari va yutuqlari" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ilmiy pedagogik va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan ta'lim muassasalarining ob'ekti, uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarni o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ularni tahlil qilish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyatga tadbiq etish bo'yicha zaruriy bilimlar hamda kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Umumiy soat	Jami auditoriya soati	Jumladan
		Nazariy	Amaliy	Ko‘chma mashg‘ulot
1	Model va modellashtirish tushunchasi. Modellar turlari va klassifikatsiyasi. Kompyuterda modellashtirish. Xisoblash fizikasi. Modellashtirish fizikasi. Kompyuterli eksperiment bosqichlari. Kompyuterda, modellashtirish uchun operatsion tizim. Dasturiy ta’minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari. Python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom etish, sintaksisining asosiy qoidalari.	2	2	2
2	Dasturiy ta’minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari. Ularni kompyuterda o‘rnatish yo‘llari: Anaconda, Python for data science. Python redaktorlarini (Spyder, PyCharm, VS Code) o‘rnatish.	4	4	2 2
3	Python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom etish, sintaksisining asosiy qoidalari. Kodlarni tuzish: algoritmlar, o‘zgaruvchanlar, ma’lumotlar turlari. Dasturlar tuzishning dastlabki qadamlari, chiziqli algoritmlar va oddiy misollar.	2	2	2
4	Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrлari bilan ishlash misollari. Chala tarmoqli va to‘liq tarmoqli algoritmlar. Munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishlash. Mantiqiy operatsiyalar. Sikllar bilan ishlash: sikllar va siklik operatorlar. Sikllar yordamida summa va ko‘paytmalarni topish. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.	6	6 2	2 2

5	Massivlar bilan ishlash. Grafiklar chizish usullari Massivlar: bir o'lchamli va ikki o'lchamli massivlarni shakillantirish, elementlari bilan ishlah. Tasodidifiy jarayonlar xaqida tushuncha va tasodifiy sonlar bilan ishlah.	6	6	2	2	2
6	Grafiklar chizish usullari: matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va histogrammalarini chizish.	2	2			2
8	Integrallash hamda oddiy differensial tenglamani yechish sonli usullari. Sonli integrallash usullari va algiritmlari: to'g'ri burchaklar, trapetsiyalar, parabolalalr (Simpson) usullari va algoritmlari. Ular yordamida aniq integralarni hisoblash. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmalri. Eksperiment ma'lumotlarining statislik tahlili. Xarakat tenglamasini sonli yechish. Mehanik harakatlarni modellashtirish va ularni visuallashtish usullari..	6	6	2	2	2
Jami:			28	28	8	8
			12			

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Model va modellashtirish tushunchasi. Modellar turlari va klassifikatsiyasi. (2 soat)

Reja:

1. Model va modellashtirish tushunchasi.
2. Modellar turlari va klassifikatsiyasi.
3. Kompyuterda modellashtirish.
4. Xisoblash fizikasi.
5. Modellashtirish fizikasi.
6. Kompyuterli eksperiment bosqichlari.
7. Kompyuterda, modellashtirish uchun operatsion tizim.

2-MAVZU: Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrлari (2 soat)

Reja

1. Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrлari bilan ishlash misollari.
2. Chala tarmoqli va to'liq tarmoqli algoritmlar.
3. Munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishlash.
4. Mantiqiy operatsiyalar.
5. Sikllar bilan ishlash: sikllar va siklik operatorlar.
6. Sikllar yordamida summa va ko'paytmalarini topish.
7. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.

3-MAVZU: Massivlar bilan ishlash. Grafiklar chizish usullari (2 soat)

Reja

1. Bir o'lchamli va ikki o'lchamli massivlarni shakillantirish
2. Elementlari bilan ishlah.
3. Tasodifiy jarayonlar xaqida tushuncha va tasodifyi sonlar bilan ishlah.
4. Grafiklar chizish usullari.
5. matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va gistogrammalarni chizish.

4-MAVZU: Integrallash hamda oddiy differensial tenglamani yechish sonli usullari (2 soat)

Reja

1. Sonli integrallash usullari algiritmlari: to'g'ri burchaklar, trapetsiyalar, parabolalalr (Simpson) usullari va algoritmlari.
2. Ular yordamida aniq integrallarni hisoblash.
3. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmali.
4. Mexanik harakatlarni modellashtirish

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.
(2 soat)

Reja:

1. Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.
2. Ularni kompyuterda o'rnatish yo'llari: Anaconda, Python for data science. Python redaktorlarini (Spyder, PyCharm, VS Code) o'rnatish.

2-MAVZU: Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatorlari bilan ishlash misollari (2 soat)

Reja

1. Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishlash misollari.
2. Chala tarmoqli va to'liq tarmoqli algoritmlar.
3. Munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishlash.
4. Mantiqiy operatsiyalar.
5. Sikllar bilan ishlash: sikllar va siklik operatorlar.
6. Sikllar yordamida summa va ko'paytmalarni topish.
7. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.

3-MAVZU: Massivlar bilan ishlash. Grafiklar chizish usullari (2 soat)

Reja:

1. Bir o'lchamli va ikki o'lchamli massivlarni shakillantirish, elementlari bilan ishlash.
2. Grafiklar chizish usullari.
3. Grafiklar chizish usullari: matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va gistogrammalarni chizish.

4-MAVZU: Sonli integrallash usullari. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmlari. (2 soat)

Reja:

- 1) Sonli integrallash usullari va algiritmlari: to'g'ri burchaklar, trapetsiyalar, parabolalalr (Simpson) usullari va algoritmlari.
- 2) Aniq integrallarni hisoblash.
- 3) Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmlari

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.

(2 soat)

Reja:

3. Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.
4. Ularни kompyuterda о'rnatish yo'llari: Anaconda, Python for data science. Python redaktorlarini (Spyder, PyCharm, VS Code) о'rnatish.

2-MAVZU: Python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom etish, sintaksisining asosiy qoidalari. (2 soat)

Reja

1. Python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom etish, sintaksisining asosiy qoidalari.
2. Kodlarni tuzish: algoritmlar, o'zgaruvchanlar, ma'lumotlar turlari.
3. Dasturlar tuzishning dastlabki qadamlari, chiziqli algoritmlar va oddiy misollar.

3-MAVZU: Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatorlari bilan ishslash misollari. (2 soat)

Reja

1. Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishslash misollari.
2. Chala tarmoqli va to'liq tarmoqli algoritmlar.
3. Munosabatlар, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishslash.
4. Mantiqiy operatsiyalar.
5. Sikllar bilan ishslash: sikllar va siklik operatorlar.
6. Sikllar yordamida summa va ko'paytmalarni topish.
7. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.

4-MAVZU: Massivlar: bir o‘lchamli va ikki o‘lchamli massivlarni shakillantirish, elementlari bilan ishlah. (2 soat)

Reja

1. Bir o‘lchamli va ikki o‘lchamli massivlarni shakillantirish
2. Elementlari bilan ishlah.
3. Tasodidifiy jarayonlar xaqida tushuncha va tasodifiy sonlar bilan ishlah.

5-MAVZU: Grafiklar chizish usullari (2 soat)

Reja:

1. Grafiklar chizish usullari.
2. matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va histogrammalarini chizish.

6-MAVZU: Sonli integrallash usullari. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmalri. (2 soat)

Reja:

1. Sonli integrallash usullari va algiritmlari: to‘g‘ri burchaklar, trapetsiyalar, parabolalar (Simpson) usullari va algiritmlari.
2. Aniq integrallarni hisoblash.
3. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmalri.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va interfaol pedagogik (Aqliy xujim, Venn diagrammasi, konseptual jadval) usul va texnologiyalardan foydalaniladi;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blis-so‘rovlardan va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

«FSMU» texnologiyasi

Tehnologiyaning maqsadi: Mazkur tehnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan hususiy hulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali ahborotni o'zlashtirish, hulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga hizmat qiladi. Mazkur tehnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Tehnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ✓ Qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy hulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- ✓ Har bir ishtirokchiga FSMU tehnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ✓ ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

F	<i>Fikringizni bayon eting</i>
S	<i>Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</i>
M	<i>Ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring</i>
U	<i>Fikringizni umumlashtiring</i>

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash asosida muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga mo'ljallangan.



“VENN DIAGRAMMASI” STRATEGIYASI

“Venn diagrammasi” strategiyasi talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o’zlashtirish (sintezlash) ko’nikmalarini hosil qilishga yo’naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:

Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

“Venn diagrammasi” strategiyani qo'llash bosqichlari:

- ✓ tinglovchilar to'rt guruhga bo'linadi;
- ✓ yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- ✓ har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- ✓ topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;
- ✓ liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradilar

“ASSESSMENT” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Topshiriq: Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholang.



TEST



QIYOSIY TAHLIL



TUSHUNCHА TAHLILI



AMALIY KO'NIKMA

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo'ladi?

Learn - nimani o'r ganib oldim?

“KWHL” metodi			
1. Nimalarni bilaman:-	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:-		
3. Qanday qilib bilib va topib olaman:-	4. Nimalarni bilib oldim:-		

“KEYS-STADI” metodi

Keys stadi 1870 yilda Garvard universitetida, keyinchalik 1920 yilda Garvard biznes mifiktabida qo'llanilgan. Keyslar tipologiyasi asosiy manbalari, syujetli mavjudligi, vaziyat bayonining vaqtligi izchilligi, keys ob'ekti, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy xarakterga egaligi, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, didaktik maqsadi, taqdim etish usuliga ko'ra ajaratiladi.

Keys metodini amalga oshirish bosqichlari:

- Keys bilan tanishuv;
- Asosiy muammoni ajratib olish;
- G'oyalar yig'ish va izlash;
- Keys yechimini tavsiya qilgan g'oyalarni tahlil qilish;
- Keys yechimi va tavsiyalar

Asosiy tushunchalar

Keys-stadi (inglizcha *sase* - to‘plam, aniq vaziyat, *stadi* -ta’lim) - keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta’lim uslubidir*.

Keys-stadi - ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minkaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan *ta’lim texnologiyasidir*

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> □ yakka tartibdagi audio-vizual ish; □ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); □ axborotni umumlashtirish; □ axborot tahlili; □ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> □ individual va guruhda ishslash; □ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; □ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> □ individual va guruhda ishslash; □ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; □ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; □ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> □ yakka va guruhda ishslash; □ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; □ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; □ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

NAZARIY MASHG'ULOTLAR

1-MAVZU: Model va modellashtirish tushunchasi. Modellar turlari va klassifikatsiyasi

Reja:

1. Model va modellashtirish tushunchasi.
2. Modellar turlari va klassifikatsiyasi.
3. Kompyuterda modellashtirish.
4. Xisoblash fizikasi.
5. Modellashtirish fizikasi.
6. Kompyuterli eksperiment bosqichlari.
7. Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.
8. Python tiliga kirish: proyektni saqlash va tayyorini davom etish, sintaksisining asosiy qoidalari.

Tayanch atamalar: modellar, fizik jarayon, eksperiment, kuzatuv, analitik model, sonli model, modellashtirish bosqichlari, matematik operatorlar, mantiqiy operatorlar, resurslar, Python dasturlash tili, Matlab sistemasi, modellar turlari, algoritm, blok-sxema, chiziqli-algotirm, sintaksis.

Model va modellashtirish asoslari va tushunchalari

Modellashtirish – bu haqiqiy dunyodagi jarayonlar, tizimlar yoki hodisalarni soddalashtirilgan shaklda ifodalashdir. Modellar orqali biz murakkab tizimlarni tushunish, ularni tahlil qilish va bashorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Modellashtirishning asosiy maqsadi – haqiqiy jarayonlarni matematik, grafik yoki kompyuter dasturlari orqali tavsiflashdir.

Fizik jarayonlarni modellashtirish – bu tabiatdagi fizik qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladigan hodisalarni (masalan, harakat, issiqlik uzatish, to‘lqinlar, elektr va magnit maydonlar) matematik yoki raqamli usullar bilan ifodalashdir. Bunda fizik qonunlar (masalan, Nyuton qonunlari, termodinamika qonunlari, Maksvell tenglamalari) asosiy rol o‘ynaydi. Fizika va astronomiya fanining rivojlanishida kompyuterlarning roli benihoya yuqoridir. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, bo‘layotgan hodisalar mexanizmini tushunib yetish, bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni oldindan aytish shular jumlasidandir. Kuzatuv ma’lumotlarini tahlili natijasida biz sodir bo‘layotgan astronomik jarayonlarni tushunishga harakat qilamiz.

Uchrashi mumkin bo‘lgan har qanday masalani yechish uchun quyidagilarni bilish kerak:

- a) *qo‘yilgan masalani nazariy jihatdan to‘g‘ri tushunish;*
- b) *masalani matematik ifodalash;*
- c) *qo‘yilgan matematik masalaning sonli yechish usulini bilish;*
- d) *ushbu sonli usulda hisob-kitob olib boradigan kompyuter dasturini yaratish va uni ishga tushirish;*
- e) *olangan natijalarni to‘g‘ri talqin qilish.*

Fizika va astronomiyada kompyuterlar asosiy quyidagi yo‘nalishlarda ishlatilishi mumkin.

Eng asosiyalarini sanab o‘tamiz.

- 1) *Nazariy masalalarni yechish uchun* (matematik modellashtirish va uni tenglamalar yordamida yechish);
- 2) *Ma’lumotlar bazasini yaratish* (yig‘ilgan kuzatuv va nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish va saqlash, masalan, kataloglar ko‘rinishida);
- 3) *Kuzatuvlarni avtomatlashtirishda;*
- 4) *O‘qitishda foydalanishda;*
- 5) *Aloqa va axborot almashish vositasi sifatida* (xalqaro kompyuterlar tarmoqlarida axborot almashinish).

Fizik jarayonlarni nimaga modellashtirish kerak?

Fizik jarayonlarni modellashtirish – bu tabiatdagi murakkab hodisalarni tushunish, bashorat qilish va ularni boshqarish uchun muhim vosita. Quyida modellashtirishning asosiy maqsadlari va zarurati haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz:

Murakkablikni soddalashtirish: Tabiatdagi ko‘plab jarayonlar juda murakkab bo‘lib, ularni to‘liq va aniq o‘rganish qiyin. Modellashtirish orqali bu jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda ifodalash mumkin. Masalan, ob‘ektning harakatini tahlil qilishda havo qarshiligini e‘tiborsiz qoldirish mumkin.

Bashorat qilish va tahlil qilish: Modellar orqali kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalarni oldindan aytish mumkin. Misol uchun, ob-havo sharoitini modellashtirish orqali yomg‘ir yoki quyoshli kunlarni bashorat qilish mumkin.

Tajribalarni tejash: Ba‘zi fizik jarayonlarni laboratoriya sharoitida o‘rganish qimmat yoki xavfli bo‘lishi mumkin. Modellashtirish orqali bu

jarayonlarni kompyuterda simulyatsiya qilish mumkin. Masalan, yadro reaksiyalarini haqiqiy tajriba qilmasdan, modellar orqali o‘rganish mumkin.

Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish: Muhandislikda yangi qurilmalar yoki tizimlarni loyihalashda modellashtirish juda muhim. Masalan, samolyotlar, avtomobillar yoki quyosh panellari ishlab chiqilishidan oldin ularning ishlash printsipi modellar orqali tekshiriladi.

Tabiiy hodisalarni tushunish: Fizik modellar orqali tabiatdagi hodisalarni chuqurroq tushunish mumkin. Misol uchun, Yerning iqlim o‘zgarishi, quyosh tizimidagi sayyoralar harakati yoki atomlar darajasidagi jarayonlar modellar yordamida o‘rganiladi

Xavfsizlikni ta’minlash: Ba‘zi jarayonlarni haqiqiy sharoitda o‘rganish xavfli bo‘lishi mumkin. Masalan, yong‘in, portlash yoki yadroviy reaksiyalarini modellashtirish orqali xavfsizroq sharoitda ularni o‘rganish mumkin.

Resurslarni tejash: Modellashtirish orqali real tajribalar uchun sarflanadigan vaqt, mablag‘ va resurslarni tejash mumkin. Masalan, qurilish loyihalarida materiallarning mustahkamligini modellashtirish orqali xatoliklarni oldindan aniqlash mumkin.

Ilmiy bilimlarni rivojlantirish: Modellashtirish orqali yangi nazariyalar va qonuniyatlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan, kvant mexanikasi yoki nisbiylik nazariyasi kabi fundamental fizik nazariyalar modellar orqali isbotlangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish: Atrof-muhit muammolarini (masalan, havo ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi) modellashtirish orqali ularni oldini olish yoki bartaraf etish choralarini ishlab chiqish mumkin.

Ta’lim va tushuntirish: Modellar orqali fizik jarayonlarni tushuntirish va o‘qitish osonroq bo‘ladi. Masalan, maktab va universitetlarda fizika fanini o‘qitishda modellardan keng foydalilanildi.

Demak, *Fizik jarayonlarni modellashtirish* – bu nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki texnologiya, muhandislik, tibbiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda muhim rol o‘ynaydi. Modellar orqali biz murakkab hodisalarni tushunish, ularni bashorat qilish va samarali yechimlar topish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Masalan, har qanday miqyosdagi astrofizik hodisalarni kuzatish – Saturn halqalari dinamikasidan tortib, yaqin yulduzlar atrofidagi sayyoralar orbitalarigacha, uzoq o‘ta yangi yulduzlar va to‘qnashayotgan galaktikalardan, hatto Katta Portlashning o‘zi - muqarrar ravishda bitta

xulosaga olib keladi: gidrodinamik oqimlar va osmon mexanikasi Koinot qanday ishlashini tushunish uchun mutlaqo zarur elementlari ekan.

Bundan tashqari, astrofizik jarayonlar natijasida paydo bo‘lgan radiatsiya doimo Yerni deyarli sezilmaydigan miltillovchi yorug‘lik bilan o‘rab oladi. Bu zaif porlash voqealarning o‘zi va asboblarimiz o‘rtasidagi yagona bog‘liqlikdir; ammo, agar u fazoviy ravishda to‘g‘ri taqsimlangan yoki nurlanishning turli chastotalarida parchalangan bo‘lsa, u juda ko‘p ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, radiatsiya uzatish nazariyasi ushbu hodisalarni talqin qilishda uchinchi, kam bo‘lmagan zarur elementni tashkil qiladi. Bundan tashqari, astrofizik ishlab chiqarish hosil bo‘lgan nurlanish doimo Yerni sezilarli sezilmaydigan nur bilan o‘rab oladi. Bu kuchsiz nurlanish tadqiqot etilayotgan hodisalarning o‘zi va asboblarimiz o‘rtasidagi yagona vositadir. Shuning uchun, agar uni fazodagi taqsimotini tushunib olsak yoki turli nurlanish chastotalariga ajrata olsak, unda juda ko‘p ma‘lumotlarga erishgan bo‘lamiz.

Kuzatuv ma‘lumotlarini nazariy talqin qilish ko‘pincha bir necha bosqichlaridan o‘tadi, shu jumladan, birinchi navbatda, fizikaning asosiy qonunlariga asoslangan taxminiy hisob-kitoblar; ikkinchidan, ko‘pincha chiziqli g‘alayonlanish nazariyasiga asoslangan analitik yoki yarim analitik hisob-kitoblar; va uchinchidan, to‘liq, har tmonlama olib boriladigan raqamli modellashtirish. Yangi kuzatuv imkoniyatlari kengayishi bilan astrofizik hodisalarga xos bo‘lgan murakkablik tobora ravshanlashib bormoqda. Nazariy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, ayrim turdagи obyektlar va hodisalarni tushuntirishda fizika qonunlari hozircha oxirigacha ma‘lum bo‘lmagan holatlarga duch kelar ekanmiz va o‘z navbatida ularni tushuntirish talab etiladi.

Masalan, biz shu tarzda o‘rganishimiz kerak bo‘lgan sohalarga yangi shakllanayotgan galaktikalar, neytron yulduzlar, ulkan sayyoralarining ichi sohalari yoki yulduzlararo muhitdagi hodisalar kirishi mumkin. Bunday ekstremal holatlarni tadqiq qilishda, kuzatuv ma‘lumotlardan tashqari, gidrodinamika va nur o‘tkazish qonunlari, kimyo qonunlari, yadro fizikasi, magnit maydonlari va atom energiyasi, modda xususiyatlari, holat tenglamasi kabi vazyaitlarni inobatga olinishini talab etadi. Fizik effektlarning keng doirasi ba’zi holatlarda ancha murakkab modellarni tuzish va o‘zragnishni talab qiladi.

Modellashtirish turlari, klassifikatsiyasi

Analitik modellashtirish: Matematik tenglamalarni aniq yechish orqali amalga oshiriladi. Bu usul soddarоq tizimlar uchun qo'llaniladi.

Raqamli modellashtirish: Murakkab tizimlarda differensial tenglamalarni raqamli usullar (masalan, chekli farqlar usuli) bilan yechish.

Kompyuter modellashtirishi: Fizik jarayonlarni kompyuter dasturlari yordamida simulyatsiya qilish (masalan, Monte-Karlo usuli, molekulyar dinamika).

Analitik usullar doimo fizika qonunlariga yaqinlashishni o'z ichiga oladi, ammo vaziyatga qarab bunday taxminlar oqilona yoki yo'q bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda inobatga olinishi kerak bo'lgan jarayonlarning xilma-xilligi umumiy muammoni sof analitik usullar yordamida hal qilishga imkon bermaydi. Bunday usullar, albatta, muammoning alohida qismlarini shakllantirish uchun zarurdir, ammo shunday vaziyatlar tug'iladiki, analitik usullar ularni yecha olmaydi va natijada sonli yondashuvga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Kompyuter quvvatining jadal rivojlanishi va ma'lumotlarni saqlash tizimlarining mavjudligi bilan bunday modellashtirish tobora murakkablashmoqda, natijalarning grafik imkoniyatlari esa ajoyib tasvirlarga olib keldi.

Aytilgan masalalarni yechish uchun talabalardan dasturlash asoslarini bilish va biron bir dasturlash tili bilan ishlash ko'nikmalari talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, bu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi – astronomiya sohasida uchraydiagn masalalarni sonli yechish orqali Matlab yoki unga alternativ bo'lgan Octave dasturlash muhitidan foydalanishni, asosiy sonli usullarni o'rgatishdan iborat.

Fizik yoki astronomik masalasini kompyuter yordamida yechilishi ko'pincha sonli modellashtirish masalasiga taqaladi. Umuman olganda kompyuterdagи modellashtirish - bu kompyuter modelini (yoxud sonli, raqamli modelni) bir yoki bir nechta hisoblash tugunlarida hisoblash jarayoni deb tushuniladi. Shunda obyekt, tizim yoki yondoshishni haqiqiydan farq qiladigan, ammo algoritmik nuqtayi nazaridan yaqinlashtirilgan shaklda aks etiladi. U tizimning xususiyatlarini va vaqt o'tishi bilan ularning o'zgarishi dinamikasini tavsiflovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kompyuter modellari umumiy matematik modellashtirish vositasiga aylandi va fizika, astrofizika, mexanika, kimyo, biologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, meteorologiya, boshqa fanlarda hamda radioelektronika, mashinasozlik, avtomobilsozlik va shu kabi texnikaning turli sohalarida

amaliy vazifalarni yechishda qo'llaniladi. Kompyuter modellari obyekt haqida yangi bilimlarni olish yoki analitik tarzda yechib bo'lmaydigan juda murakkab tizimlarning xatti-harakatlarini taxmin qilish uchun ishlataladi.

Kompyuter modellashtirish murakkab tizimlarni o'rganishning eng samarali usullaridan biridir. Haqiqiy tajribalar moliyaviy yoki tabiiy to'siqlar tufayli qiyin bo'lgan yoki oldindan aytib bo'lmaydigan natijalar berishi mumkin bo'lgan hollarda hisoblash tajribalarini o'tkazish imkoniyati tufayli kompyuter modellarini o'rganish osonroq va qulayroqdir. Kompyuter modellarini rasmiylashtirilganligi o'rganilayotgan asl obyektning (yoki obyektlar sinfining) xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga imkon beradi. Xususan, modellashtirilayotgan fizik sistemaning uning parametrlari va dastlabki sharoitlarining o'zgarishiga ta'sir qilishi o'rganiladi.

Kompyuter modelini yaratishda o'rganilayotgan obyekt yoki hodisaning xos tabiatidan abstraksiyalanishga asoslanadi va ikki bosqichdan iborat – avval sifatiy, so'ngra sonli model yaratiladi. Qanchalik muhim xususiyatlар aniqlansa va kompyuter modeliga o'tkazilsa, u haqiqiy modelga shunchalik yaqin bo'ladi, va natijada ushbu modeldan foydalanadigan tizim shunchalik ko'p imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Sonli modellashtirish kompyuterda bir qator hisoblash tajribalarini o'tkazishdan iborat bo'lib, ularning maqsadi hisob-kitob natijalarini tahlil qilish, talqin qilish va o'rganilayotgan obyektning haqiqiy xatti-harakatlari bilan taqqoslash va agar kerak bo'lsa, modelni yanada takomillashtirishga yo'naltirigan.

Analitik va imitatsion modellashtirish mavjud. Analitik modellashtirishda haqiqiy obyektning matematik, ya'ni abstrakt modellarini algebraik, differensial va boshqa tenglamalar shaklida o'rganiladi, shuningdek ularning aniq yechimiga olib keladigan aniq hisoblash usullarining amalga oshirilishi ta'minlaydi. Imitatsion modellashtirishda esa matematik modellar ko'p sonli elementar operatsiyalarni ketma-ket bajarish orqali o'rganilayotgan obyekt yoki tizimning ishlashini takrorlaydigan algoritmlar shaklida o'rganiladi.

Fizik modellashtirishning amaliy ahamiyati kelsak, u qatir amaliy masalalarni hal etish yordam beradi.

Masalan:

Ilmiy tadqiqotlar: Fizik hodisalarni chuqurroq tushunish.

Muhandislik: Qurilmalar va tizimlarni loyihalash (masalan,

samolyotlar, quyosh panellari).

Tibbiyat: Tana ichidagi fizik jarayonlarni o‘rganish (masalan, qon oqimi, nafas olish).

Atrof-muhitni muhofaza qilish: Iqlim o‘zgarishi, havo va suv oqimlarini modellashtirish.

Misollar: Erkin tushish harakati: Nyuton qonunlari asosida ob’ektning erkin tushishini tavsiflovchi matematik model. Issiqlik uzatish: Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi yordamida materiallarda issiqlik tarqalishini modellashtirish. Suyuqlik dinamikasi: Navye-Stoks tenglamalari yordamida suyuqlik oqimini tahlil qilish.

Umuman olganda, *fizik jarayonlarni modellashtirish* – bu tabiat qonuniyatlarini tushunish va ularni amaliyotda qo‘llashning muhim vositasи. U ilmiy tadqiqotlar, muhandislik va texnologiyalarning rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Kompyuterli modellashtirish quyidagilarga imkonini beradi:

- tadqiqot obyektlari doirasini kengaytirish, ya’ni takrorlanmaydigan hodisalarini, ko‘zdan yashiringan, o‘tmish va kelajakdagi hodisalarini, real sharoitda ro‘yobga chiqmaydigan obyekt va hodisalarini o‘rganish;
- har qanday tabiatdagi obyektlarni, shu jumladan mavhumlarni, tasavvur qilish;
- hodisa va jarayonlarni yuz berish dinamikasida o‘rganish;
- vaqt ni boshqarish (tezlashtirish, sekinlashtirish va hk.);
- modelning ko‘p sonli sinovlarini o‘tkazish, har safar uni boshlang‘ich holatiga qaytarish;
- obyektning turli xil xususiyatlarini raqamli yoki grafik shaklda olish;
- obyektning sinov nusxalarini yaratmasdan uning optimal tuzilishini aniqlash;
- inson salomatligi yoki atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarga olib kelmaydigan, xavfsiz tajribalar o‘tkazish.

Shunda kompyuter modellashtirishning asosiy bosqichlari odatda quyidagilardan iborat:

- ✓ Masalani qo‘yish va uni tahlil qilish, ya’ni modelni yaratish maqsadini va qanday dastlabki ma’lumotlar kerakligini aniqlash kerak.
- ✓ Modelning parametrlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va tavsiflash; ularning qaysi biri ushbu vazifa uchun eng muhim ekanligini va qaysi birini e’tiborsiz qoldirish mumkinligini baholash.
- ✓ Kompyuter modelini amalga oshirish usuli va algoritmini

ishlab chiqish: natijalarni olish usulini tanlash yoki ishlab chiqish; tanlangan usul asosida natijalarni olish algoritmini yaratish; algoritmnинг to‘g‘riligini tekshirish.

✓ Kompyuter modelini (dasturini) ishlab chiqish: algoritmi kompyuterda dasturiy ta’minotni amalga oshirish vositalarini (dasturlash tili, muhiti, opretion sistemasi va hokazo) tanlash; kompyuter modelini ishlab chiqish; yaratilgan dasturining to‘g‘riligini tekshirish.

✓ Tajriba o‘tkazish: yaratilgan kompyuter modeli asosida tajriba o‘tkazish; natijalarni tahlil qilish; model va obyekt xususiyatlari to‘g‘risida xulosa chiqarish.

Python tiliga kirish: asosi qoidalari. Kodlarni tuzish

Ko‘rib turganimizdek, kompyuter modellashtirishning asosiy masala algoritmga taqaladi. Algoritm so‘zi buyuk ajdodimiz Al-Xorazmiy ismidan kelib chiqadi. Uning ismi o‘rta asrlarda yevropa tillariga tarjima qilinganda algoritm so‘ziga aylandi. Xozirda algoritmnинг ko‘p sonli ta’riflari mavjud, chunki bu tushuncha keng ma’noli bo‘lib, ilm, fan va kunadlik xayotda qo‘llaniladi.

Algoritm deb biz ma’lum bir masalani yechishga mo‘ljallangan aniq va ravon bayon etilgan harakat va amallar ketma-ketligini tushunamiz. Algoritmnинг mohiyati bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligida bo‘lib, ularning belgilangan tartibda bajarilishi qo‘yilgan masalani muvaffaqiyatli yechishga olib keladi.

Ishlab chiqilgan algoritm yoki dastur to‘g‘ri ishlashi uchun qator xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: diskretlik – algoritm elementar qadamlar – buyruqlarga bo‘linishi kerak; bir qiymatlilik – har bir buyruq ijrochining mumkin bo‘lgan yagona harakatini belgilaydi; tushunarilik – algoritmnинг barcha buyruqlari ijrochining buyruqlar tizimiga kiritilgan; natijalilik – ijrochi qo‘yilgan masalani soni cheklangan qadamlar davomida ichishi kerak.

Algoritmlarning ko‘pchiligi umumiylig hususiyatiga ega bo‘lishi kerak – ishlab chiqilgan algoritm yordamida qotor boshqa o‘xshash masalalarini yechish mumkin bo‘lishi kerak.

1-Jadval. Blok-sxemaning asosiy elementlari

boshla, tugat	Algoritmnинг boshlanishi va tugashi, dasturga kirish va chiqish
---------------	---

a,b,c kiritish chiqarish	Vvod-vivod v obshem vide
printer, faylga yuborish	Natijalarni printerda chop etish yoki faylga yozish
c=(a+b)/(d+a)	Jarayon: hisoblash amallari yoki buyruqlar ketma-ketligi
ha shart yo'q	Hal qilish, shartni tekshirish
i = -1,5,10	Modifikatsiya: siklni boshlash

Algoritm turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, algoritmnini og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilsa bo'ladi. Ushbu shaklda biz retseptlar, ko'rsatmalar, instruksiyalar va boshqalardan foydalanamiz. Rasmiy ijrochilar uchun mo'ljallangan algoritmlarni yozish uchun maxsus dasturlash tillari ishlab chiqilgan. Bularidan tashqari algoritmlarni grafik ko'rinishda blok-sxema yordamida tasvirlash ham mumkin. Buning uchun maxsus belgilash tizimi ishlab chiqilgan. Blok sxemalardagi asosiy elementlari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Algoritmlarning turlari xilma-xil bo'ladi. Ularning eng asosiyalarini sanab o'tadigan bo'lsak, avvalo chiziqli algoritmnini aytamiz. Unda har bir buyruq va instruksiya berilgan ketma-ketliklida bir marta bajariladi. Bu eng sodda algoritm bo'lib, unig yordamida, masalan oddiy chiziqli tenglamlar yechilishi mumkin. Undan keyin tarmoqlanuvchi algoritm keladi. Unda oldindan berilgan shartning bajarilishiga qarab (to'g'ri yoki yolg'on), hisoblash faqat bir marta bajariladigan turli tarmoqlar bo'y lab davom etiladi. Keyin takrorlanuvchi algortm keladi, unda biron bir shart tekshirilishi yoki berilgan parametrning har xil qiymatlari asosida algoritmda takrorlanish yuz beradigan jarayon. Albatta, asli masalalarni yechganda bittasida to'xtamasdan, algoritmlarning turli kombinatsiyalaridan foydalanamiz va bunisi aralash (kombinatsiyalangan) algoritm deyiladi. Keyingi paragraflarda bu algoritmlarning har birida batafsilroq to'xtab o'tamiz.

Masalalarni yechish hamda algoritmlarni amalga oshirish uchun dasturlash tillarning birontasini tanlab olish hamda uni o'zlashtirish talab etiladi. Bu borada biz hosirgi paytda juda yoqori rivoj hamda mashhur

bo'lib qolgan Python dasturlash tilini taklif qilamiz.

Python nima?

Python – bu yuqori darajadagi, umummaqsadli va o'qish oson dasturlash tili. Uning sintaksisi oddiy va qisqa bo'lib, yangi boshlanuvchilar uchun juda qulay. Python dasturlash tili web-ilovalar, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, ilmiy hisoblash va boshqa ko'plab sohalarda qo'llaniladi.

Pythonning afzalliklari:

Oson o'rghanish: Sintaksisi oddiy va ingliz tiliga o'xshash.

Ko'p maqsadli: Web, ilmiy hisoblash, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt kabi sohalarda qo'llaniladi.

Keng kutubxonalar: NumPy, Pandas, TensorFlow kabi kutubxonalar orqali murakkab vazifalarni oson bajarish mumkin.

Platformadan mustaqil: Windows, macOS, Linux kabi operatsion tizimlarda ishlaydi

Python dasturlash tilining mohiyati.

Python – bu yuqori darajali, interpretatsiya qilinadigan va umummaqsadli dasturlash tili. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Oddiy va o'qish oson sintaksis: Python kodlari ingliz tiliga o'xshash va kam belgilar bilan yoziladi. Bu uni yangi boshlanuvchilar uchun juda qulay qiladi.

Interpretatsiya qilinadigan til: Python kodini kompilyatsiya qilish shart emas. Kod to'g'ridan-to'g'ri interpretator orqali ishga tushiriladi.

Dinamik tipizatsiya: O'zgaruvchilarning turini aniq ko'rsatish shart emas. Misol uchun, $x = 10$ yozish kifoya, x butun son ekanligini Python o'zi aniqlaydi.

Keng kutubxonalar: Python-da ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, veb-ilovalar va boshqa sohalar uchun ko'plab kutubxonalar mavjud.

Platformadan mustaqil: Python kodini Windows, macOS, Linux kabi har qanday operatsion tizimda ishlatish mumkin.

Python-ning rivojkanishi tarixi

Python dasturlash tili Guido van Rossum tomonidan 1980-yillarning oxirida ishlab chiqilgan. Ushbu tilning yaratilishida asosiy maqsad – bu dasturchilar uchun oddiy, o'qish oson va funksional til yaratish edi. Python nomi Guido van Rossumning sevimli komediya shousi "Monty

Python's Flying Circus" dan olingan.

Asosiy bosqichlar:

1980-yillar: Guido van Rossum ABC tiliga o'xshash, lekin undan yaxshiroq til yaratish niyatida ish boshladi.

1991-yil: Pythonning birinchi versiyasi (0.9.0) chiqdi. Bu versiyada klasslar, funktsiyalar va asosiy ma'lumot turlari mavjud edi.

2000-yil: Python 2.0 chiqdi. Ushbu versiyada yangi xususiyatlar, masalan, garbage collection (axlat yig'ish) va Unicode qo'llab-quvvatlandi.

2008-yil: Python 3.0 chiqdi. Bu versiyada tilning sintaksis va imkoniyatlarida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Python 2.x va Python 3.x versiyalari bir-biri bilan to'liq mos kelmaydi.

Hozirgi kunda: Python dunyodagi eng mashhur dasturlash tillaridan biri hisoblanadi. U ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, veb-ilovalar, ilmiy hisoblash va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Python nima uchun qulay?

Oson o'rGANISH: Sintaksisi oddiy va mantiqiy.

Keng jamiyat: Python dasturchilar jamoasi katta bo'lib, har qanday muammoga yechim topish oson.

Ko'p maqsadli: Turli sohalarda qo'llash mumkin.

Kutubxonalar: NumPy, Pandas, TensorFlow, Django kabi kutubxonalar orqali murakkab vazifalarni oson bajarish mumkin.

Python dasturlashni boshlash uchun zarur vositalar:

Python interpretatori: Python kodini ishga tushirish uchun kompyuteringizda Python interpretatori o'rnatilgan bo'lishi kerak. Rasmiy sayt: python.org.

Matn muharriri yoki IDE: Kod yozish uchun oddiy matn muharriri (masalan, Notepad++) yoki maxsus IDE (masalan, PyCharm, VS Code) ishlatsiningiz mumkin.

4. Python dasturining asosiy qismlari:

1. **Print funksiyasi:** Ekranga ma'lumot chiqarish uchun ishlataladi.

```
python
print("Salom, Dunyo!")
```

Natija: Salom, Dunyo!

O'zgaruvchilar: Ma'lumotlarni saqlash uchun ishlataladi. Python-da o'zgaruvchilar turini aniq ko'rsatish shart emas.

```
python
```

```
ism = "Ali"  
yosh = 25  
print(ism, yosh)
```

Natija: Ali 25

Ma'lumot turlari:

String (Matn): "Salom"
Integer (Butun son): 10
Float (Haqiqiy son): 3.14
Boolean (Mantiqiy qiymat): True yoki False
List (Ro'yxat): [1, 2, 3]
Dictionary (Lug'at): {"ism": "Ali", "yosh": 25}

Shart operatorlari (if-else): Shartga qarab kod bloklarini boshqarish.

```
python  
yosh = 18  
if yosh >= 18 :  
    print("Siz voyaga yetgansiz!")  
else:  
    print("Siz hali yoshsiz!")
```

Natija: Siz voyaga yetgansiz!

Sikllar (for, while): Bir necha marta takrorlanadigan amallarni bajarish.

For sikli:

```
python  
for i in range(5) :  
    print(i)
```

Natija: 0 1 2 3 4

While sikli:

```
python  
son = 0  
while son < 5 :  
    print(son)  
    son += 1
```

Natija: 0 1 2 3 4

Funksiyalar: Kodni qayta ishlatalish uchun funksiyalar yaratish mumkin.

```
python  
def salom_ber(ism) :  
    print(f"Salom, {ism}!")  
  
salom_ber("Ali")
```

Natija: Salom, Ali!

Python-ning asosiy sintaksis qoidalari:

- **Indentatsiya (joy tashlash):** Python-da kod bloklari indentatsiya orqali ajratiladi. Boshqa tillardagi `{}` qavslar o‘rniga, Python joy tashlashdan foydalanadi.

- **Izohlar:** Kodga izoh qo‘sish uchun # belgisi ishlataladi.

```
python
```

```
# Bu izoh  
print("Salom!")
```

- **Qatorni tugatish:** Python-da har bir buyruq yangi qatorda yoziladi. Agar qatorni uzun bo‘lsa, \ belgisi yordamida davom ettirish mumkin.

Python kutubxonalarini:

Python-da kutubxonalar orqali murakkab vazifalarni oson bajarish mumkin. Ba‘zi mashhur kutubxonalar:

- **NumPy:** Raqamli hisoblashlar uchun.
- **Pandas:** Ma'lumotlar tahlili uchun.
- **Matplotlib:** Grafiklar chizish uchun.
- **TensorFlow:** Sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi uchun.

Python dasturini ishga tushirish:

Python dasturini .py kengaytmali fayl sifatida saqlang va terminalda quyidagi buyruq orqali ishga tushiring:

```
bash
```

```
python dastur_nomi.py
```

Python – bu kuchli va oson o‘rganiladigan dasturlash tili bo‘lib, u yordamida siz turli xil dasturlar yaratishingiz mumkin. Boshlang‘ich qadamlarni o‘rganib, asta-sekin murakkab loyihalarga o‘tishingiz mumkin.

Dasturiy ta’minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari

MATLAB so‘zi MATrix LABoratory – matritsa laboratoriysi so‘zlarining boshlang‘ich harflaridan iborat. Bu sistemaning nomi uning mohiyatini to‘liq aks ettiradi. Bu haqiqatan ham matritsa laboratoriysi, bu yerda boshlang‘ich element bu oddiy o‘zgaruvchi yoki konstanta emas, balki matritsa va uning maxsus holatlari — vektor-satr, vektor-ustundir. MATLABdan keng ko‘lamli ilmiy va muhandislik muammolarini hal qilish uchun foydalansa bo‘ladi. Bunday vazifalarni yechishdagi hisob-kitoblarining raqamli natijalari mos ravishda vizualizatsiyasi bilan birga

ko‘rsatilishi kerak. MATLAB bunday muammoning ham yechimini bera oladi, bu esa o‘quv jarayoni uchun juda foydali, chunki talabalar o‘zlarining kurs va bitiruv ishlarining grafik qismini tezda tayyorlashlari kerak bo‘lganda bu ko‘nikmalar juda muhim rol o‘ynaydi. Matlabdan tashqari, albatta, Visual Digital Fortran, Delphi, Visual C++, C# va boshqalar kabi juda kuchli dasturlash va vizualizatsiyalash vositalari mavjud. Biroq, mualliflarning fikriga ko‘ra, MATLAB muhiti eng sodda va ayni paytda samarali dasturlar va imkoniyatlarni beradi.

Foydalanuvchi MATLAB tizimi bilan, boshqa har qanday matematik tizim singari, klaviatura va sichqoncha yordamida aloqa o‘rnatadi. Operatsion dasturlari bo‘lgan tegishli belgilarni kiritish va tugmachalarni bosish orqali foydalanuvchi ma’lumotlarni kiritadi, funksiyalar va buyruqlarga murojaat qiladi va yechim oladi.


Keng foydalanuvchi interfeysi ko‘plab operatsiyalarni o‘z ichiga oladi va ko‘p sonli funksiyalar, buyruqlar va tugmachalarni bilishni (aniqrog‘i yodlashni) talab qiladi. Bularga, xususan: sistemaning asosiy menyusi; instrumentlar panelidagi tugmalar; tizim oynalari; fayl muharriri; ilovalar bilan aloqa tuzish; grafik tizimi; ma’lumotlar tizimi va boshqalar. (Bu qo‘llanmada sistema va tizim so‘lari sinonimlar bo‘lib, bir biriga teng).

Faqat masala va vazifalarni yechish jarayonidagina bularning barchasini o‘rganib, faol foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish mumkin. MATLAB tizim bilan ishlashning boshida interfeys elementlarining hammasini to‘liq o‘rganish mantiqga ega emas. Ushbu qo‘llanmada sistemaning faqat dastlabki asosiy oynalari, menu va instrumentlar paneli qisqacha tushuntirilgan.

MATLAB bilan ishlashni boshlaymiz. Odatda bu tizimni ishga tushirish uchun kompyuterning Ish Stolida joylashgan belgiga sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosamiz. Komyuterning ichki imkoniyatlariga qarab, tez orada 2-rasmda ko‘rsatilgan MATLAB interfeysi yuklanadi.

Foydalanuvchi tizim bilan maxsus oynalar orqali aloqa qiladi. Ularni qisqacha ta’riflaymiz.

1-Rasm. MATLAB sistemasining asosiy oynasi va sohalari



Buyruqlar oynasi (Command Window). Buyruqlar oynasi (1-rasm) foydalanuvchi uchun eng muhim. Shu oyna orqali matematik ifodalar kiritiladi hamda sistema yubormoqchi bo‘lgan ma’lumotlar aks etadi. Dastur ishga tushirilgandan so‘ng foydalanuvchi darhol u bilan ishlashi mumkin bo‘ladi. Matematik ifodalar buyruqlar satrida taklif etuvchi `>>` belgisidan keyin yoziladi.

Kiritish satrida quyidagi ifodani kiritamiz (kiritish satrida yozilishi kerak bo‘lgan misollar asosiy matndan alohida shifr bilan ajratilgan)

`>> x=2+3`

Amalni bajarish uchun Enter tugmani bosing. Natijani 1-rasmda ko‘rish mumkin. Agar biz, masalan, raqamlardan birini o‘zgartirmoqchi bo‘lsak, buni qilaolmaymiz. Kursorni istalgan qatorga qo‘yish orqali avval kiritilgan buyruqni tahrirlashning iloji yo‘qligi MATLAB tizimining xususiyatlaridan biridir. Avval kiritilgan buyruqni taxrirlash uchun kursorni kiritish satriga olib kelib `<↑>` va `<↓>` klavishalaridan foydalanamiz. Bu tugmalar yordamida avval kiritilgan buyruqlar ro‘yxatidagi amallarni birma-bir chaqirtirib, kerakligida to‘xmash kerak bo‘ladi. Buyruqni darhol yoki taxrirlangandan keyin ishga tushirsa bo‘ladi (eslatma: har qanaqa buyruqni ijro etish uchun Enter klavishasini bosamiz).

Ushbu oyna asosiy bo‘lib, umumay holda, MATLAB sistemasi bilan ishlaganda boshqa oynalar kerak bo‘lmashligi ham mumkin. Ammo ularning mavjudligi kompyuter bilan muloqotni oson va qulay qiladi.

2. Ishchi sohasi (Workspace) oynasi. Dastur bajarilishi davomida turli tipdagi o‘zgaruvchanlar ishlataladi. Hosil qilingan o‘zgaruvchanlar kompyuter xotirasining maxsus ajratilgan sohasida saqlanadi. Ular o‘zidan o‘zi yo‘q bo‘lib ketmaydi – faqat lasturdan chiqqanda yoki maxsus buyruqlar yordamida. Shunda o‘zgaruvchanlarni (aniqrog‘i qiymatlarini) kiritilayotgan ixtiyoriy matematik ifodada ishlatsa bo‘ladi. Ishchi sohasi oynasi foydalanuvchiga ishchi sohasida saqlanayotgan barcha o‘zgaruvchanlar ro‘yxitini taqdim etadi (1-rasm). Ixtiyoriy o‘zgaruvchanni tanlasa, qiymatini ko‘rsa yoki uni ustida biron bir boshqa amalni bajarsa bo‘ladi. Ko‘rsatilgan harakatlar kontekst menyusi orqali amalga oshiriladi. Shunda sichqonchaning o‘ng tugmasini o‘zgaruvchi nomiga bosish kerak bo‘ladi.

3. Current Folder oynasi foydalanuvchining fayllar va papkalar sistemasidagi joyini ko‘rsatadi. Buyruqlar oynasidan kiritilgan matematik ifodalardan tashqari foydalanuvchi fayllar bilan ham ishlashi mumkin (ular haqida keyinroq batafsil ma’lumot beramiz). Shuningdek, matematik funksiyalar aslida shu funksiyaning nomi bilan yozilgan fayldir. Bu fayllarda berilgan funksiyani amalga oshiradigan dasturlar yozilgan. Shunday qilib, foydalanuvchi doimo fayllar bilan ish tutadi. Masalan, o‘rnatilgan funksiyani ko‘rsatganimizda, biz aslida shu funksiyaning dasutri matni yozilgan faylga (kengaytmasiz) murojat qilgan bo‘lamiz. Shunda sistema so‘ralgan faylni joriy katalogda yoki murojat etish yo‘lida qidiradi.

4. Buyruqlar tarixi (Command History) oynasi. Buyruqlar oynasining kiritish satrida yozilgan barcha buyruqlar avtomatik ravishda ro‘yxatga kiritiladi va u buyruqlar tarixi oynasida ko‘rsatiladi. Bu ro‘yxat nimaga kerak bo‘lishi mumkin? Ancha avval bajarilgan buyruqga murojaat qilish kerak bo‘lib qolsa, uni aynan buyruqlar tarixi oynasidan topsa bo‘ladi va unga sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosib, buyruq qayta ishga tushiriladi.

Buyruqlar oynasida kiritish satrida buyruqlarning kerakli ketma-ketligini bajarsak, shunga mos ketma-ketlik buyruqlar tarixi oynasida ko‘rsatiladi. Bir nechta amallar yordamida buyruqlar ketma-ketligi dasturga aylanishi mumkin. Ushbu oynadagi ma’lumotlar MATLAB sistemasidan chiqib ketsak ham saqlanib boradi. Uni faqat menu orqali tozalasa bo‘ladi.

Xuddi shunga o‘xhash amallarni Spyder muhitida bajarish mumkin

Spyder (Scientific PYthon Development EnviRonment) — bu **Python dasturlash muhitlaridan biri** bo‘lib, ayniqsa ilmiy hisob-

kitoblar, ma'lumotlar tahlili va muhandislik sohalari uchun juda qulay vosita hisoblanadi. U **MATLAB** uslubidagi interfeysga ega bo'lib, ilmiy dasturchilar va tadqiqotchilar uchun qulay muhit yaratadi.

Spyder-ning asosiy xususiyatlari

Interaktiv konsol – Jupyter Kernel bilan bog'langan bo'lib, kodni qatorma-qator yoki blokma-blok bajarish imkonini beradi.

O'zgaruvchilar menejeri (Variable Explorer) – Matritsa, massiv va boshqa o'zgaruvchilarni vizual ravishda ko'rish va tahrirlash mumkin (MATLAB-ning "Workspace" ga o'xhash).

Matn muharriri (Editor) – Pythonda kod yozish uchun qulay muharrir bo'lib, kodni rangli qilib ko'rsatadi, auto-tugallash funksiyasiga ega va hatolarni aniqlashda yordam beradi.


Plot va grafikalar – Matplotlib va Seaborn kabi kutubxonalar bilan yaxshi integratsiyalashgan bo'lib, grafiklarni ko'rsatishda qulay.

Debug vositasi – Koddagi xatolarni topish va tuzatish uchun kuchli debugging funksiyasi mavjud.

To'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlarni yuklash va tahlil qilish – CSV, Excel va boshqa formatlardagi ma'lumotlarni yuklab, tahlil qilish mumkin.

2-Rasm. Spyder muhitining asosiy oynasi va sohalari

Matn muharriri (Editor)



O'zgaruvchilar menejeri
(Konsol)

Endi konsolning satrida matematik operatsiyalarni bajarishimiz mumkin. Uning uchun avvalo arifmetik operatorlarini keltiramiz. Arifmetik operatorlar. Bu operatorlar sonlar ustida asosiy matematik amallarni bajarish uchun ishlataladi.

Operator	Tavsifi	Misol	Natija
+	Qo'shish	$5 + 3$	8
-	Ayirish	$10 - 4$	6
*	Ko'paytirish	$6 * 7$	42
/	Bo'lish (haqiqiy)	$9 / 2$	4.5
//	Bo'lish (butun qismi)	$9 // 2$	4
%	Qoldiq olish	$9 \% 2$	1
**	Darajaga oshirish	$3 ** 2$	9

Belgilash (assign) operatorlari. Bu operatorlar o'zgaruvchilarga qiymat berish yoki o'zgaruvchilarning hozirgi qiymatini o'zgartirish uchun ishlataladi.

Operator	Tavsifi	Misol	Teng natija
=	O'zgaruvchiga qiymat berish	$x = 5$	$x = 5$
+=	Qo'shish va berish	$x += 3$	$x = x + 3$
-=	Ayirish va berish	$x -= 2$	$x = x - 2$
*=	Ko'paytirish va berish	$x *= 4$	$x = x * 4$
/=	Bo'lish va berish	$x /= 2$	$x = x / 2$
//=	Butun bo'lish va berish	$x //= 3$	$x = x // 3$
%=	Qoldiq olish va berish	$x %= 3$	$x = x \% 3$
**=	Daraja va berish	$x **= 2$	$x = x ** 2$

Python-dagi arifmetik operatorlar – bu sonlar ustida arifmetik amallar bajarish uchun ishlataladigan operatorlardir. Quyida ularning ishlash usuli va misollar berilgan:

Qo'shish (+). Bu operator ikkita sonni qo'shish uchun ishlataladi.

`a = 10`

`b = 5`

`c = a + b`

`print(c) # Natija: 15`

Qo'shish operatori satr (string) birlashtirishda ham ishlaydi

```
s1 = "Assalomu "
s2 = "alaykum"
print(s1 + s2) # Natija: Assalomu alaykum
```

Ayirish (-). Bu operator bir sonni ikkinchisidan ayirish uchun ishlatiladi

```
a = 10
b = 3
c = a - b
print(c) # Natija: 7
```

Agar o'zgaruvchiga manfiy son bersak:

```
x = -5
y = 3
print(x - y) # Natija: -8
```

Ko'paytirish (*). Bu operator ikki sonni ko'paytiradi.

```
a = 6
b = 7
c = a * b
print(c) # Natija: 42
```

Satrlarga nisbatan ishlatilsa, takrorlash uchun foydalaniladi:

```
s = "Python "
print(s * 3) # Natija: Python Python Python
```

Bo'lish (/). Bu operator bo'lish amalini bajaradi va haqiqiy son (float) qaytaradi.

```
a = 10
b = 4
c = a / b
print(c) # Natija: 2.5
```

Butun bo'lish (//). Bu operator bo'lish natijasining butun qismini qaytaradi.

```
a = 10
b = 4
c = a // b
print(c) # Natija: 2
```

Agar manfiy sonlar bilan ishlatilsa:

```
x = -10
```

```
y = 3  
print(x // y) # Natija: -4  
(Manfiy sonlarda katta butun songa qarab yaxlitlanadi!)
```

Qoldiq olish (%). Bu operator bo‘lishning qoldiq qismini qaytaradi.

```
a = 10  
b = 4  
c = a % b  
print(c) # Natija: 2  
Amaliyotda toq va juft sonlarni tekshirishda ishlataladi:  
n = 7  
if n % 2 == 0:  
    print("Juft son")  
else:  
    print("Toq son") # Natija: Toq son
```

Darajaga oshirish (**). Bu operator darajaga oshirish uchun ishlataladi.

```
a = 3  
b = 2  
c = a ** b  
print(c) # Natija: 9 (3^2)
```

Kvadrat ildiz olish uchun (1/2 darajasi) ishlataladi:

```
x = 16  
print(x ** 0.5) # Natija: 4.0
```

Oddiy belgilash operatori (=). Bu operator o‘zgaruvchiga qiymat tayinlash uchun ishlataladi.

```
x = 10 # x ga 10 qiymati berildi  
y = 5 # y ga 5 qiymati berildi  
print(x, y) # Natija: 10 5
```

Qo‘sish va belgilash (+=). Bu operator o‘zgaruvchiga berilgan qiymatga yangi qiymatni qo‘shib, natijani saqlaydi.

```
x = 10  
x += 5 # x = x + 5  
print(x) # Natija: 15
```

Ayirish va belgilash (-=). Bu operator o‘zgaruvchining qiymatidan

berilgan qiymatni ayirib, natijani o‘zgaruvchiga saqlaydi.

```
x = 10  
x -= 3 # x = x - 3  
print(x) # Natija: 7
```

Ko‘paytirish va belgilash (*=). Bu operator o‘zgaruvchini berilgan qiymatga ko‘paytirib, natijani o‘zgaruvchiga saqlaydi.

```
x = 5  
x *= 3 # x = x * 3  
print(x) # Natija: 15
```

Bo‘lish va belgilash (/=). Bu operator o‘zgaruvchini berilgan qiymatga bo‘lib, natijani saqlaydi (**haqiqiy son qaytaradi**).

```
x = 10  
x /= 4 # x = x / 4  
print(x) # Natija: 2.5
```

Butun bo‘lish va belgilash (//=). Bu operator butun bo‘lishni bajarib, natijani o‘zgaruvchiga saqlaydi.

```
x = 10  
x //= 3 # x = x // 3  
print(x) # Natija: 3
```

Qoldiq olish va belgilash (%=). Bu operator bo‘lish qoldig‘ini hisoblab, natijani o‘zgaruvchiga saqlaydi.

```
x = 10  
x %= 3 # x = x % 3  
print(x) # Natija: 1
```

Darajaga oshirish va belgilash (**=). Bu operator o‘zgaruvchini berilgan qiymat darajasiga oshirib, natijani o‘zgaruvchiga saqlaydi.

```
x = 4  
x **= 3 # x = x ** 3  
print(x) # Natija: 64 (4^3)
```

Python-dagi matematik funksiyalar va konstantalar

Python matematik amallar uchun math moduli bilan ishlaydi. Bu modul trigonometrik, logarifmik, ildiz chiqarish va boshqa matematik funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Matematik konstantalar

Konstanta	Tavsifi	Qiymati
math.pi	Pi soni (π)	3.141592653589793
math.e	Natural logarifm asosi (e)	2.718281828459045
math.tau	Tau ($\tau = 2\pi$)	6.283185307179586
math.inf	Cheksizlik (∞)	Infinity
math.nan	NaN (Not a Number)	NaN

```
import math
print(math.pi) # 3.141592653589793
print(math.e) # 2.718281828459045
print(math.inf) # inf (cheksizlik)
```

Asosiy matematik funksiyalar

Funksiya	Tavsifi	Misol	Natija
math.sqrt(x)	Kvadrat ildiz	math.sqrt(25)	5.0
math.pow(x, y)	Darajaga oshirish	math.pow(2, 3)	8.0
math.exp(x)	e^x hisoblash	math.exp(2)	7.389
math.log(x)	Natural logarifm ($\ln x$)	math.log(10)	2.302
math.log(x, b)	Logarifm ($\log_b(x)$)	math.log(8, 2)	3.0
math.factorial(n)	Faktorial	math.factorial(5)	120
math.gcd(a, b)	Eng katta umumiy bo‘luvchi (EKUB)	math.gcd(48, 18)	6

```
import math
print(math.sqrt(16)) # 4.0
print(math.pow(2, 3)) # 8.0
print(math.log(100, 10)) # 2.0
```

```
print(math.factorial(5)) # 120
print(math.gcd(24, 36)) # 12
```

Trigonometrik funksiyalar

Funksiya	Tavsifi	Misol	Natija
math.sin(x)	Sinus	math.sin(math.pi/2)	1.0
math.cos(x)	Kosinus	math.cos(0)	1.0
math.tan(x)	Tangens	math.tan(math.pi/4)	1.0
math.asin(x)	Arcsinus	math.asin(1)	$\pi/2$
math.acos(x)	Arccosinus	math.acos(1)	0.0
math.atan(x)	Arctangens	math.atan(1)	$\pi/4$
math.degrees(x)	Radiandan darajaga o'tish	math.degrees(math.pi)	180.0
math.radians(x)	Darajadan radianga o'tish	math.radians(180)	π

```
import math
print(math.sin(math.pi/2)) # 1.0
print(math.cos(0)) # 1.0
print(math.tan(math.pi/4)) # 1.0
print(math.degrees(math.pi)) # 180.0
print(math.radians(90)) # 1.5708
```

Sonlar bilan ishlash

Funksiya	Tavsifi	Misol	Natija
math.ceil(x)	Yuqoriga yaxlitlash	math.ceil(4.2)	5
math.floor(x)	Pastga yaxlitlash	math.floor(4.7)	4
math.trunc(x)	Kasr qismini olib tashlash	math.trunc(4.9)	4
round(x, n)	n xonagacha yaxlitlash	round(3.14159, 2)	3.14

```
import math
print(math.ceil(4.2)) # 5
print(math.floor(4.7)) # 4
print(math.trunc(4.9)) # 4
print(round(3.14159, 2)) # 3.14
```

Tasodifiy sonlar bilan ishlash (random moduli). Python tasodifiy sonlar yaratish uchun random modulidan foydalanadi.

Funksiya	Tavsifi	Misol
random.random()	0 dan 1 gacha tasodifiy son	random.random()
random.randint(a, b)	a dan b gacha butun son	random.randint(1, 10)
random.uniform(a, b)	a dan b gacha haqiqiy son	random.uniform(1, 5)
random.choice(seq)	Ro‘yxatdan tasodifiy element olish	random.choice([1, 2, 3])

```
import random
print(random.random())    # 0.2345 (har safar har xil)
print(random.randint(1, 10)) # 7 (tasodifiy)
print(random.uniform(1, 5)) # 3.456 (tasodifiy)
print(random.choice([1, 2, 3])) # 2 (tasodifiy)
```

NAZORAT SAVOLLARI

- 1) Fizik jarayonlarni modellashtirish qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
- 2) Python dasturlash tilining fizik jarayonlarni modellashtirishda afzalliklari nimalardan iborat?
- 3) Algoritm tuzishning bosqichlari qanaqa ekan?
- 4) Fizik modelning ta’rifi qanaqa?
- 5) Fizika va astronomiya fanlarining rivojlanishida modellashtirishning roli qanaqa?
- 6) Blok-sxmalarning asosiy elementlarini aytib bering
- 7) Matematik va trigonometric funksiyaar bilan ishlash uchun kutubxonalarining qaysi biriga murojjat qiish kerak?
- 8) Python kodlari qaysi kengaytma bilan saqlanadi?
- 9) Kodni bajarish natijasi qanday bo‘ladi?
 $a = 5; b = -3; a = 8;$
 $c = a + b$
 $\text{print}(c)$
- 10) $\text{print}(2 + 3 * 4)$ kodi qanday natijani beradi?

2-MAVZU: Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishlash misollari.

Reja:

1. Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishlash misollari.
2. Chala tarmoqli va to‘liq tarmoqli algoritmlar.
3. Munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishlash.
4. Mantiqiy operatsiyalar.
5. Sikllar bilan ishlash: sikllar va siklik operatorlar.
6. Sikllar yordamida summa va ko‘paytmalarni topish.
7. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.

Tarmoqlanuvchi algoritmlar

Tushunarliki, tabiiy masalalrni yechganda, sof chiziqli algoritmlar yetarli bo‘lmaydi. Masalalarning ko‘pchiliginini yechganda tanlash, yoxud biron bir shartni tekshirish masalasi paydo bo‘ladi. Masalan, oddiy kvadrat tenglamasini yechganimizda diskriminantning manfiy yoki musbat ekanligiga qarab, yechimlar haqida u yoki bu xulosaga kelamiz. Yana bitta misol – do‘kondan biron narsani sotib olmoqchi bo‘lsak, avval mablag‘imiz yetadimi degan savolga javob qidiramiz. Ya’ni xattiharakatlarimiz doimo paydo bo‘ladigan shartlarga bog‘liq, xulosa qilish va yechimga kelish esa imkon bo‘lgan yo‘llar – tarmoqlarning birortasini tanlash masalasiga taqaladi. Shunda bizga tarmoqlanuvchi algoritmlar yordam beradi (va nafaqat dasturlashda).

Hozir biz munosabatlar operatorlaridan boshlaymiz (5- jadval). Munosabatlar operatorlari ikkita kattalik, o‘zgaruvchi, vektor yoki matritsani bir-biri bilan solishtirishda xizmat qiladi.

5- jadval. Munosabatlar operatorlari ($a = 3; b = 4; c = 3;$)
belgi bilan javobi nima bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan

Belgi	Vazifikasi	Sintaksisi va misoli	
$==$	Tenglik. Ikkita kattalikning tengligini tekshiradi. Yodda tuting, bu ikkita kattalikni tenglashtirmaydi va o‘zgartirmaydi, faqat solishtiradi.	$a = 3; b = 4; c = 3;$ $w = (a == c)$ # True	
$!=$	Teng emaslik. Ikkita kattalikning teng emasligi tekshiradi.	$q = (a != c)$ # False	$q = (a != b)$ # True
$>$	Katta. Chapda a son c sondan kattami,	$n = (a > c)$	$n = (b > a)$

	degan savolga yolg‘on (0) degan javob berildi. O‘ng tomonda b son a sondan kattami, degan savolga to‘g‘ri (1) degan javob berildi.	# False	# True
\geq	Katta yoki teng. Oldingi misoldek a son c va b sondan katta yoki tengmi, degan savol qo‘yilyapti va mos javoblar olinyapti.	$q = (a \geq c)$ # True	$q = (a \geq b)$ # False
$<$	Kichik. Chapda a son c sondan kichikmi, degan savolga yolg‘on (0) degan javob berildi. O‘ng tomonda a son b sondan kichikmi, degan savolga to‘g‘ri (1) degan javob berildi.	$n = (a < c)$ # False	$n = (a < b)$ # True
\leq	Kichik yoki teng. Oldingi midoldek a son c va b sondan kichik yoki tengmi, degan savol qo‘yilyapti va mos javoblar olinyapti.	$n = (a \leq c)$ # True	$n = (a \leq b)$ # True


Misollarda ko‘rganimizdek, munosabatlar operatorlari kattaliklarning yoki bir xil o‘chamdagи vektor va matritsalarni elementlar bo‘ylab solishtiradi va mantiqiy ifodaning javobi ikkitadan bittasi bo‘la oladi: 1 (ha, haiqat) yoki 0 (yo‘q, yolg‘on).

Kattaliklar kompleks sonli bo‘lsa, == va ~= operatatorlar haqiqiy va mavhum qismlarini alohida solishtirishadi. Faqat bunda alohida import cmath kutubxonasiga murojjat qilishni unutmang.

$$a = 5 + 6i; b = -9 + 3i; c = 5 + 6i; d = 5 + 8i; e = -9 + 5i;$$

$w = (a == b)$ # False	$w = (a == c)$ # True	$w = (a != d)$ # True	$w = (b == d)$ # False
---------------------------	--------------------------	--------------------------	---------------------------

Tarmoqlanuvchi algoritmlar, odatda, if va ba’zi hollarda switch nomli shartli operatorlar yordamida amalga oshiriladi. Shart yoki shartlarga qarab buyruqlarning u yoki bu ketma-ketligi oshirilishi kerak bo‘lganda tarmoqlanish yuzaga keladi. Tarmoqlarning soniga qarab algoritmlar: a) chala tarmoqli (bitta tarmoq); b) to‘liq tarmoqli (ikkita tarmoq); c) ko‘p tarmoqli (ikkitadan kop tarmoq) bo‘ladi.



4-Rasm. Chala tarmoqli (chapda) va to'liq tarmoqli algoritmlar misoli.

6-Jadval. MATLABda tarmoqlanuvchi algortimlarni tashkil qilish misollari		
if <shart> <buyruqlar> end		
Sintakksis	Blok-sxema	Misol
if <shart> <buyruqlar> end	<pre> graph TD B[Boshlash] --> A[/a,b,c kiritish/] A --> D{Shart} D -- Ha --> C[Buyruq] C --> E[/d,e,f chiqarish/] E --> F[Tugatish] </pre>	<pre> # Ikkita a va b sonni solishtirib, # a ning b ga nisbatan holatini # aniqlang a = 1; b = 3; if (a > b): print('a katta b dan'); if (a < b): print('a kichik b dan'); if (a == b): print('a teng b'); </pre>
if <shart> <buyruq1> else <buyruq2> end		
if <shart> <buyruqlar 1> else <buyruqlar 2> end	<pre> graph TD B[Boshlash] --> A[/a,b,c kiritish/] A --> D{Shart} D -- Ha --> C[Buyruq 1] D -- Yo'q --> E[Buyruq 2] C --> F[/d,e,f chiqarish/] F --> G[Tugatish] </pre>	<pre> % Ikkita a va b sonni solishtirib, ular teng yoki teng emasligini aniqlang a = 1; b = 3; if (a == b): print('a teng b ga'); else: print('a tengemas b ga'); </pre>

7-Jadval. MATLABda ko‘p tarmoqli algoritmlarning misollari		
if <shart> <buyruq1> elseif <buyruq2> else <buyruq3> end		
Sintaksis	Blok-sxema	Misol
<pre>if <shart 1> <buyruqlar 1> elseif <shart 2> <buyruqlar 2> else <buyruqlar 3> End</pre>		<pre>% Ikkita a va b % sonni solishtiring a = 2; b = 4; if a > b: print('a katta b dan'); else: if (a < b): print('a kichik b dan'); else: print('a teng b');</pre>
if <shart> <buyruq1> else <buyruq2> end		

4-rasmida tarmoqlanuvchi algoritmlarning misollari ko‘rsatilgan. Shart sifatida ma’lum bir mantiqiy ifoda ko‘rsatiladi. Agar shart haqiqat bo‘lsa, unda Buyruq bajariladi, aks holda dasturning keyingi operatoriga o‘tiladi (chapdagi rasm). Agar shart haqiqat bo‘lsa, u holda Buyruq-1, aks holda Buyruq-2 bajariladi (o‘ngdag‘i rasm). MATLABda shartli operatorlaning sintaksisi ko‘rinishi 6-Jadvalda ko‘rsatilgandek bo‘ladi.

Tarmoqlanuvchi algoritmlarda ikkitadan ko‘p tarmoqni shakllantirish uchun qo‘srimcha else, elseif, switch..case operatoridan foydalanamiz. Dasturni tuzishda va o‘qishda qulay bo‘lishi uchun if ... end juftligini matnda chap tomondan tekislaymiz (7-jadval).

4-Misol. Uchta a, b, c son berilgan. Ular orasida eng katasini toping. Bu masalaga dasturni bir nechta variantda tuzsa bo‘ladi. m deb ular orasida eng kattasini belgilaymiz. 1-yondoshishda avval a va b solishtiramiz; ularning kattasini topib, m deb belgilaymiz; keyin m va c sonlarni solishtirib, ular orasidagi kattasini topamiz. Ikkinci yondashishda eng kattasi deb m = a deymiz. Keyin uni boshqa ikkita son bilan solishtiramiz.

# Arifmetik operatsiyalar a = 1.2; b = 6.3; c = -9.2; if (a > b): m = a else: m = b; if (c > m): m = c	# Arifmetik operatsiyalar m = a; if (c > m): m = c; if (b > m): m = b;
print('%4.4f, %4.4f va %4.4f sonlar orasida eng kattasi %4.4f ekan' % (a,b,c,m));	

#bu yozuv ikkala yondoshishga tegishli

5-Misol. Biron bir tengsizlikning yechimi $(-3; \infty)$ intervalida bo'lsin. Dasturingiz tasodifiy tanlangan z soni shu oraliqda ekanmi yoki yo'qmi, aniqlab bersin.

Arifmetik operatsiyalar

```
z = float(input('Ixtiyiriyligi sonni kiritin = '));
if (z > -3):
    print('\n Z = %4.4f son (-3; inf) oraliq'ida joylashgan \n' % z);
else:
    print('\n Z = %4.4f son (-3; inf) oraliq'ida joylashmagan \n' % z);
```

Mantiqiy operatsiyalar

Dasturlashtiriladigan masala va vazifalar kamdan-kam hollarda oddiy. Ko'pgina dasturlarda ma'lum bir talabga erishilgunga qadar bir nechta buyruqlar takrorlanadigan bir qator sikllar va bir nechta harakatlarning qaysi biri bajarilishi kerakligini aniqlaydigan turli xil tekshiruvlardan o'tish kerak bo'ladi. Eng sodda misol – biron bir tengsizlikning yechimi aniq belgilangan diapazonda yoki bir nechta diapazonlarda yotgan bo'lishi mumkin. Shunda sinov nuqtaning tegishliligini tekshirish uchun bir nechta bosqichlardan o'tish kerak bo'ladi.

Mantiqiy iboralar ikkita haqiqat ma'nosidan birini olishi mumkin — "haqiqat" yoki "yolg'on". Mantiqiy operatsiyalar oddiylardan murakkab mantiqiy ifodalarni ta'riflashga va yechishga xizmat qiladi. O'z navbatida, mantiqiy iboralar odatda dasturni bajarish ketma-ketligini boshqarish shartlari sifatida ishlatiladi.

Matematikada eng sodda amallar – qo'shish va ko'paytirish. Shunga o'xshash operatsiyalar dasturlashda ham ishlatiladi va mantiqiy operatsiyalar deyiladi. Ammo bu yerda qo'shish va ayirish amallari sonlar ustida emas, balki operandlar ustida bajariladi.

Operandlar – har qanaqa bayonot bo'lib, ularning qiymatlari haqiqat (1) yolg'on (1) bo'lishi mumkin. Ushbu qiymatlar ma'lum operatsiyalar qonunlariga bo'ysunib, dasturlashdagi voqealar mantig'ini belgilaydi. Qanday operatsiyalar mavjudligini va ular nima uchun kerak ekanligini ko'rib chiqamiz.

Mantiqiy operatsiya – bu operatsiyalar ustida amal bo'lib, yangi mantiqiy kattalikni qaytaradigan operatsiya. Demak, agarda biz ikkita

bayonotga asoslanib, yangi bayonotni mantiqiy hosil qilsak, mantiqiy operatsiya’ni bajargan bo‘lamiz.

Agarda biron bir gap haqida “haqiqat” yoki “yolg‘on” deb aytish mumkin bo‘lsa, bu gapni bayonot deb tushunamiz. Bundan tashqari, har qanaqa bayonot yoki “to‘g‘ri” yoki “yolg‘on” bo‘lishi kerak. Hech qanaqa bayonot bir vaqtning o‘zida ham “to‘g‘ri” ham “yolg‘on” bo‘la olmaydi. Bayonotlarning misoli:

- 1) Toshkent – O‘zbekiston poytaxti;
- 2) 27 bu oddiy son;
- 3) $3 > 5$.

1)- va 3) bayonotlar “to‘g‘ri”, 2)- “yolg‘on”, chunki $27 = 3 * 3 * 3$. Quyidagi gap va ifodalar: a) darsni o‘zlashtirish; b) $2*x>8$; c) $a*x2+b*x+c=0$; d) Soat necha? Bayonot bo‘la olmadi, chunki bular haqida “to‘g‘ri” yoki “yolg‘on” deb ayta olmaymiz.

Bayonotlar yordamida obyektlarning xususiyatlari, ular orasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi. Agarda bayonot bunday bog‘lanishni to‘g‘ri aks ettirsa, u “to‘g‘ri”, aks holda “yolg‘on” bo‘ladi. Suv harorati 20 gradus, Yerdan Quyoshgacha masofa 150 mln km, $3 > 5$ kabi bayonotlar aniq obyektning xususiyatini bildiradi (havo, Koinot, sonlar). Ularning har biri “to‘g‘ri” yoki “yolg‘on” bo‘lishi mumkin.

Mantiqiy operatsiyalarda bayonotlarning mazmuni qaralmaydi, buning o‘rniga ularning “to‘g‘ri” yoki “yolg‘on” ekanligi muhim. Shuning uchun bayonotning qiymati, yuqorida aytganimizdek, 1 (to‘g‘ri) yoki 0 (yolg‘on) teng bo‘ladigan oddiy o‘zgaruvchan deb qaraladi. Bu o‘zgaruvchilar kombinatsiyalaridan tashkil topgan murakkab bayonotlar mantiqiy funksiyalar bo‘ladi. Tabiiyki, murakkab mantiqiy funksiyalarning to‘g‘ri yoki yolg‘onligi ushbu murakkab bayonotlarni tashkil qilgan oddiy bayonotlarning to‘g‘ri yoki yolg‘onligiga bog‘liq.

Mantiqiy o‘zgaruvchilarining haqiqiyligi va yo‘g‘onligini ifodalash uchun turli belgilashlar mavjud:

Haqiqat	H	True	T	1
Yolg‘on	Y	False	F	0

Mantiqiy funksiyalardagi oddiy bayonotlar bir-biri bilan asosiy uchta operatsiyalar bilan bog‘lanadi

AND (VA, &) – mantiqiy ko‘paytirish (konyuksiya);

OR (YOKI, |) – mantiqiy qo‘sish (dizyunksiya);

NOT (EMAS, ~) – mantiqiy rad etish (inversiya).

Ularni alohida misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

1) mantiqiy ko‘paytirish – konyuksiya lotin tilidagi conjunctio – bog‘lanish so‘zidan olingan. A = “Tashqarida quyosh charaqlayapti”, B = “Tashqarida havo ochiq” degan ikkita oddiy bayonot “AND” ulagichi bilan bir biriga bog‘lanadi va natijada “Tashqarida quyosh charaqlayapti va havo ochiq” degan murakkab bayonotga kelamiz. MATLABda AND operatsiyasi & belgi yordamida amalga oshiriladi.

Konyuksiyadagi haqiqiylik jadvali bunday tasvirlanadi

Murakkab Bayonat	A	B	A&B
Tashqarida Quyosh yoritmayapti va havo bulutli	0	0	0
Tashqarida Quyosh yoritmayapti va havo ochiq	0	1	0
Tashqarida Quyosh charaqlayapti va havo bulutli	1	0	0
Tashqarida quyosh charaqlayapti va havo ochiq	1	1	1

Konyuksiyada tashkil qiluvchi oddiy bayonotlarning ikkalasi ham “to‘g‘ri” bo‘lsagina, mantiqiy funksiya ham ”to‘g‘ri” bo‘ladi, aks hollarda u doimo “yolg‘on” bo‘lib qolaveradi.

6-Misol. Tengsizlikning yechimi $x \in (3.5; 8.2)$ intervalda bo‘lsin. Ixtiyoriy sinov nuqtasi shu intervalga kirishi yoki yo‘qligini aniqlaydigan dasturni tuzing.


```

x = float(input('sinov nuqtaning kattaligini kiritin = '));
a = 3.5; b = 8.2; # intervalning chegaralari belgilandi
if ((x > a) & (x < b)):
    print('\n X = %2.1f son (%2.1f; %2.1f) intervalga kiradi \n' % (x,a,b));
else:
    print('\n X = %2.1f son (%2.1f; %2.1f) intervalga kirmaydi \n' % (x,a,b));

```

Mantiqiy shartimiz endi & ulagich bilan bog‘langan ikkita qismdan iborat ($x > a$) va ($x < b$). Sinov nuqtamiz shu intervalda bo‘lishi uchun u bir vaqtning o‘zida 3.5 dan katta va 8.2 dan kichik bo‘lishi shart. Shundagina murakkab bayonot “to‘g‘ri” bo‘ladi.

7-Misol. Sinov nuqta rasmda bo‘yagan sohaga tegishliliginini aniqlang



```

import random as rnd
import math as mt
x = rnd.uniform(-2,2); # Sinov buqtaning X koordinatasi tasodifiy tanlanadi
y = rnd.uniform(-2,2); # Sinov buqtaning Y koordinatasi tasodifiy tanlanadi
R1 = 1; R2 = 2; # Sohaning ichki va tashqi radiuslari
r = mt.sqrt(x*x + y*y); #Sinov nuqtaning aylanalar markazigacha masofa
if (r > R1) & (r < R2):
    print('\n Nuqta = (%.2f; %.2f) halqaning ichida \n' % (x,y));
else:
    print('\n Nuqta = (%.2f; %.2f) halqadan tashqarida \n' % (x,y));

```

Sinov naqtamiz bo‘yagan sohada bo‘lishi uchun uning markazgacha bo‘lgan masofasi birinchi radiusdan ($R_1 = 1$) katta va ikkinchi radiusdan ($R_2 = 2$) kichik bo‘lishi kerak.

2) mantiqiy qo‘shish – dizyunksiya lotin tilidagi disjunctio – ajratish so‘zidan olingan. A = “Tashqarida quyosh charaqlayapti”, B = “Tashqarida havo bulutli” degan ikkita oddiy bayonot “OR” ulagichi bilan bir-biriga bog‘lanadi va natijada “Tashqarida quyosh charaqlayapti yoki havo bulutli” degan murakkab bayonotga kelamiz. MATLABda OR operatsiyasi | belgi yordamida amalga oshiriladi.

Dizyunksiyadagi haqiqiylik jadvali bunday tasvirlanadi

Murakkab bayonot	A	B	A B
Tashqarida quyosh yoritmayapti yoki havo ochiq	0	0	0
Tashqarida quyosh yoritmayapti yoki havo bulutli	0	1	1
Tashqarida quyosh charaqlayapti yoki havo ochiq	1	0	1

Tashqarida quyosh charaqlayapti yoki havo bulutli	1	1	1
--	---	---	---

Konyuksiyada tashkil qiluvchi oddiy bayonotlarning ikkalasi ham “yolg‘on” bo‘lsagina, mantiqiy funksiya ham ” yolg‘on” bo‘ladi, aks hollarda u doimo “to‘g‘ri” bo‘lib qolaveradi.

8-Misol. Tengsizlikning yechimi $x \in (-\infty; -2.6] \cup (3.5; \infty)$ intervalda bo‘lsin. Ixtiyoriy sinov nuqtasi shu intervalga kirishi yoki yo‘qligini aniqlaydigan dasturni tuzing.

```
import random as rnd
```

```
x = rnd.uniform(-8,8); # Sinov buqtaning X koordinatasi tasodifiy tanlanadi
```

```
a = -2.6; b = 3.5; # intervallarning ichki chegaralari belgilandi
```

```
if ( (x <= a) or (x > b) ):
```


```
    print('\n X = %2.1f son (-Inf;%2.1f) U (%2.1f, +Inf) intervalga kiradi  
\n' % (x,a,b));
```

```
else:
```

```
    print('\n X = %2.1f son (-Inf;%2.1f) U (%2.1f, +Inf) intervalga  
kirmaydi \n' % (x,a,b));
```

Mantiqiy shartimiz endi | ulagich bian bog‘langan ikkita qismdan iborat ($x < a$) va ($x > b$). Sinov nuqtamiz shu intervalda bo‘lishi uchun u bir vaqtning o‘zida -2.6 dan kichik yoki 3.5 dan katta-kichik bo‘lishi mumkin. Shunda murakkab bayonot “to‘g‘ri” bo‘ladi.

9-Misol. Sinov nuqta rasmida bo‘yalgan soha (ya’ni 1- va 3-choraklar) ga tegishliliginini aniqlang.



```
import random as rnd
```

```
x = rnd.uniform(-2,2); # Sinov buqtaning X koordinatasi tasodifiy tanlanadi
```

```
y = rnd.uniform(-2,2); # Sinov buqtaning Y koordinatasi tasodifiy tanlanadi
```

```

if ( (x>0 and y>0) or (x<0 and y<0) ):
    print("\n Nuqta = (%.2f; %.2f) halqaning ichida \n' % (x,y) )
else:
    print("\n Nuqta = (%.2f; %.2f) halqaning tashqarisida \n' % (x,y) )

```

Sinov naqtamiz bo‘yalgan sohaga bo‘lishi uchun uning ikkala koordinatasi bir vaqtning o‘zida musbat yoki manfiy bo‘lishi kerak.

3) mantiqiy rad etish – inversiya lotin tilidagi inversion – almashtirish, aylantirish so‘zidan olingan. Oddiy tilda EMAS so‘ziga mos keladi. Masalan, $A = 10$ – juft son degan bayonot “haqiqat” qiymatiga ega. Buni rad etish $B = 10$ – toq son bo‘lib, qiymati “yolg‘on” ga teng. Va aksincha, $A = 10$ – toq son degan bayonot “yolg‘on” va uni rad etgan $B = 10$ – juft son bayonoti “haqiqat” ga aylanadi. MATLABda EMAS operatsiyasi ~ belgi yordamida amalga oshiriladi.

Inversiyadagi haqiqiylik jadvali bunday tasvirlanadi

A	B =~ A
1	0
0	1

Agar asl ifoda “to‘g‘ri” bo‘lsa, natija “yolg‘on” bo‘ladi, va aksincha. Shu uchta mantiqiy operatsiyadan tashqari, mantiqiy ta’qib qilish (implikatsiya), mantiqiy tenglik (ekvivalentlik) kabi boshqa operatsiyalar ham mavjud. Ular haqida batafsilroq bilmoqchi bo‘lsangiz, adabiyotlarga murojaat qilishiz mumkin. Ushbu qo‘llanmadagi ma’lumotlarni o‘zlashtirsh uchun aytilgan 3 ta operatsiya yetarli deb o‘ylaymiz. Rad etish operatsiyalariga misollarni keyingi paragrafdagi misollar bilan birga beriladi.

Sikllar va siklik operatorlar

Masalani yechish davomida dasturdagi ma’lum bir buyruqni yoki buyruqlarni (blokini) bir necha marta bajarishingiz kerak bo‘lgan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Odatda, operatorlar ketma-ket bajariladi. Birinchidan, funksiyadagi birinchi operator bajariladi, undan keyin ikkinchisi va boshqalar. Agarda ularning har birini alohida yozadigan bo‘lsak, juda ko‘p joy talab etiladi. Uning ustiga aynan nechi marta takrorlash keraklini oldindn bilmasligimiz ham mumkin.

Dasturlash tillari yanada murakkab ijro yo‘llarini yaratishga imkon beradigan turli xil boshqaruv tuzilmalarini taqdim etadi. Siklik operatori

bizga buyruq yoki yoki buyruqlar ketma-ketligini bir necha marta bajarishga imkon beradi. 5-rasmida ko‘pgina dasturlash tillari uchun siklik operatorining umumiy blok-sxemalari ko‘rsatilgan.

Python sikl talablarini bajarish uchun turli xil shakllarni taqdim etadi, shu jumladan for... va while... sikllari. Aynan shular eng ko‘p ishlatiladigan operatorlar. Takrorlash soni oldindan ma’lum bo‘lganda for sikliklik operatori ishlatiladi. Ma’lum bir shart haqiqiy bo‘lguncha biron bir buyruqlarni bajarish talab etiladigan bo‘lsa, while operatorini ishlatamiz. Bu holda aynan nechi marta takrorlash keraklini ma’lum bo‘lmasligi ham mumkin. for va while sikllarning shartidan kein ikki nuqta belgisi qo‘yiladi : bu sikllarning boshlanishini ko‘rsatadi, undan keyin sikl tanasi keladi va uning yozishda kamida 1 probel bilan o’ng tomomda bo’ladi.

Aytganimizdek, for siklik operatori buyruq yoki buyruqlar majmuasini oldindan belgilangan marta bajaradi. for kalit so‘zidan keyin indeks – sikl sanagichi va uning qiymatlari diapazoni ko‘rsatiladi. Musbat indekslar uchun uning kattaligi maksimal qiymatidan oshganda siklning bajarilishi to‘xtatiladi, manfiylarda esa – teskarisi, indeks ko‘rsatilgan chegaradan kamayib ketguncha sikl takrorlanaveradi.

5-Rasm. for...end (chapda) va while...end (o‘ngda) ko‘rinishdagi sikllar uchun blok-sxemalar ko‘rsatilgan.

<pre> graph TD B[Boshlash] --> I[/a,b,c kiritish/] I --> D{i=i:min:di:max} D --> B1[Buyruqlar] B1 --> O1[/d,e,f chiqarish/] O1 --> T1[Tugatish] </pre>	<pre> graph TD B[Boshlash] --> I[/a,b,c kiritish/] I --> D{Shart} D -- Ha --> B1[Buyruqlar] B1 --> O1[/d,e,f chiqarish/] O1 --> T1[Tugatish] D -- Yo‘q --> T2[Tugatish] </pre>
<pre> for i in range(1,10): buyruq_1; buyruq_2; # 10 siklda ishtirok etmaydi </pre>	<pre> i = 0; while(i < 10): buyruq_1; buyruq_2; i=i+1 </pre>

9-Misol. Ixtiyoriy butun n uchun uning $n!$ faktorialini toping

```
# Faktorilani hisoblaydigan sikl
# n! topish kerak, bu yerda n – butun musbar son
n = int(input('Faktorial asosini kriting n = '));
res = 1;
for i in range(1, n+1):
    res = res * i;
print('Natijada %d! = %d \n' % (n,res) )
```

Agarda diapazondagi qadam ko‘rsatilmasa, u avtomatik ravishda di = 1 deb hisoblanadi.

10-Misol. $n = 0$ dan ixtiyoriy chegaragacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini toping.

```
# n=0 dan ixtiyoriy chegaragacha
# sonlarning yig‘indisini toping: n = SUM(0,INF)
n = int(input('Sonlarning yuqori chegarasini kriting n = ' ) )
res = 0;
for i in range (0, n+1):
    res = res + i;
print('Natija = %d ' % (res) )
```

Siklik operator while shunday ishlaydiki, operator tanasidagi buyruqlar ma’lum shartlar to‘g‘ri bo‘lsagina, bajarila boshlanadi va takrorlanadi. Ko‘rsatilgan shart yolg‘onga aylanganida, bu operator o‘z ishini to‘xtatadi. Shunda while siklik operatori takrorlanishlar soni oldindan ma’lum bo‘lmagan hollarda ishlatiladi.

Bu sikl ishlatilganda oldin qo‘yilgan shart tekshiriladi. Agarda u yolg‘on bo‘lsa, unda sikl boshlanmasdan tugaydi va end kalit so‘zidan keyin kelayotgan buyruq bajariladi

11-Misol. Ikkita sonning eng katta umumiyligi bo‘luvchisini topadigan dasturni yozing. Bu masalani yechish uchun Evklid usullariga murojaat qilamiz

% a va b sonlarining eng katta umumiyligi bo‘luvchisini hisoblash

% a va b sonlarining eng katta umumiyligi bo‘luvchisini hisoblash

<pre> a = 6; b = 42; while (a != b): if (a > b): a = a - b else: b = b - a #Natijani NOD o‘zgaruvchisi bilan saqlaymiz NOD = a ; print(NOD); </pre>	<pre> a = 30; b = 20; while (a != 0) and (b != 0): if (a > b): a = (a%b); else: b = (b%a); # Natijani NOD o‘zgaruvchisi bilan saqlaymiz NOD = a + b; print(NOD); </pre>
--	---

12-Misol. Teylor qatoridan foydalanib $\frac{1}{\sqrt{1+x}}$ funksiya qiymatining ($-1 < x \leq 1$) oraliqdagi qiymatini toping va o‘rnatilgan funksiyalar beradigan qiymati bilan solishtiring. Hisoblashda aniqlikni $|S_n - S_{n-1}| = \varepsilon = 0.001$ deb oling. Berilgan funksiyaning Teylor qatori

$$\frac{1}{\sqrt{1+x}} = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(-1)^n (2n)!}{2^{2n} (n!)^2} (x)^n$$

```

import math as mt
x = float(input('Argument qiymatini kriting x = '))
# Masalada berilgan aniqlik mezoni
epsilon = 0.0001;
# summadagi joriy va oldingi qiymatlari uchun o‘zgaruvchilar
ss = 0; ss_1 = 0;
# shu summalarining ayrimasi uchun o‘zgaruvchi kiritildi, siklning sharti
# bajarilishi uchun 1-yaqinlashda uning qiymatini sun’iy ravishda
ko‘tarildi
diff_sum = 1000;
# Formulaga binoan birinchi had n = 0 dan boshlanadi
n = 0;
while (diff_sum > epsilon):
    # Murakkab funksiya bo‘lgani uchun surat v maxraj qismlarini alohida
    # hisoblashni tavsiya qilamiz
    surat = mt.pow(-1,n) * mt.factorial(2*n) * mt.pow(x,n);
    maxraj = mt.pow(2,2*n) * mt.pow(mt.factorial(n),2);
    ss = ss + surat / maxraj;
    diff_sum = abs(ss - ss_1);
    ss_1 = ss;
    n = n + 1;

```

```

javob = ss;
print('Korsatilgan summaning x=%3.1f nuqtadagi qiymati %3.4f ga teng
\n' % (x,javob))
# O'rnatilgan funksiya orqali hisoblab ko'ramiz va natijalarni solishtib
ko'ramiz
javob2 = 1/(mt.sqrt(1+x));
print('Masaladagi funksiyaning x=%3.1f nuqtadagi qiymati %3.4f ga teng
\n' % (x,javob2) )

```

```

abs_farq = abs(javob - javob2);
print('Ikkita natija orasidagi absolyut farqi = %3.12f ga teng \n' %
(abs_farq) )

```

```

nisb_farq = abs(javob - javob2)/abs(javob);
print('Ikkita natija orasidagi nisbiy farqi = %3.12f ga teng \n' %
(nisb_farq) )

```

12-Misoldagi kabi masalalarni yechganda nimani topish kerakligiga e'tibor qiling: yig'indinimi yoki ko'paytmanimi? Yig'indi bo'lganda, birinchi had $ss = 0$, ko'paytma bo'lganda $pp = 1$ bo'lishini inobatga oling. Aks holda, noto'g'ri javob qaytariladi.

```

for i in range(1,11):
    if (i ==3 ):
        continue
    print(i);
    if (i == 7):
        break

```

for va while sikllarda ularning bajarilishiga ta'sir etadigan operatorlar ham ishlataladi. Biron bir qo'shimcha shart to'g'ri bo'lib chiqsa, siklni to'xtatish kerak bo'lsa, break operatoridan foydalanamiz. Sikldagi joriy qadamni rad etib, keying qadamga o'tish talab etilsa, continue operatoridan foydalanamiz. pause operatorini ishlatsak, aytilgan shart bajarilganda sikl vaqtincha ishini to'xtatadi, ammo klaviaturadagi ixtiyoriy klavishani bosganimizda, siklning ishi davom etaveradi. Ining ustiga pause (t), deb yozsak, to'xtab turish vaqtini boshqargan bo'lamiz, chunki bu yerda t – sekund birligida berilgan vaqt. Masalan, 1 dan to 10 gacha sonlarni ekranga chiqarilsin, ammo son 3 teng bo'lganda haq o'tkazib yuborilsin, 7 teng bo'lganda umuman to'xtatilsin, degan qo'shimcha shartlar kiritilgan masalaga dastur misol qilib ko'rsatilgan.

Oddiy sikllardan tashqari, ichki sikllar ham bo'lishi mumkin. Buni bitta sikl boshqa sikl ichida ishlayapti deb qarash kerak. Buni 11-misolda

ko‘rdik, faqat u yerda sikl ichida oddiy mantiqiy tekshirish ketyapti. To‘liq vaziyatni quyidagi masalani yechib, 13-misol qilib ko‘rsatamiz. Oddiy gap bilan aytganda, bu yerda (a) summalarining ko‘paytmasini va (b) ko‘paytmalarining yig‘indisini topish kerak ekan.

	13-Misol. Yig‘indining ko‘paytmasini va ko‘paytmaning yig‘indisini toping
a	$P = \prod_{j=1}^k \frac{(j - j^2)k}{j - 4} \sum_{i=j}^{k+2} \frac{\sqrt[3]{ i - 5 }}{ i - 7 }$ <pre> import math as mt k = int(input('Qatorlarning yuqori chegarasini kiriting = ')) P = 1; # Ko‘paytma bo‘lgani uchun birinchi had 1 teng for j in range(1, k): # tashqi sikl boshlanishi S = 0; # Summa bo‘lgani uchun birinchi had 0 teng for i in range(j, k+3): # Ichki sikl boshlanishi surat_1 = mt.pow(abs(i-5),1/3); maxraj_1 = abs(i-7); # Shu kabi shart bilan nolga aylanadigan maxrajlarni rad etamiz if (maxraj_1 == 0): continue; S = S + surat_1 / maxraj_1; # Ko‘paytma bo‘lgani uchun suratni ham tekshirishimiz kerak if (S == 0): continue surat_2 = j - j^2; maxraj_2 = j - 4; if (surat_2 == 0 or maxraj_2 == 0): continue P = P * S * k * surat_2 / maxraj_2; print('Masalaning javobi = %3.4f \n\n' % (P)) </pre>
b	$W = \sum_{k=1}^n \frac{(-2)^{3k+1}}{4(k-1)x^{3k+1}} \prod_{m=1}^{k+2} \frac{m^3 - 8}{m - 4}$ <pre> import math as mt n = int(input('Qatorlarning yuqori chegarasini kiriting = ')) x = - 1.2; # Buni (-2;2) oraligdatanlasa bo‘ladi # Summa bo‘lgani uchun birinchi had 0 teng S = 0; </pre>

```

for k in range(1 , n): # tashqi sikl boshlanishi
    # Ichki sikl boshlanishi
    P = 1; # Ko‘paytma bo‘lgani uchun birinchi had 1 teng
    for m in range(1 , k+3):
        surat_1 = mt.pow(m,3) - 8;
        maxraj_1 = m - 4;
        # Shu kabi shart bilan nolga aylanadigan maxraj va suratni rad etamiz
        if (surat_1 == 0 or maxraj_1 == 0):
            continue;
        P = P * surat_1/ maxraj_1;
        # Summa bo‘lgani uchun maxrajning o‘zini tekshirsak yetarli
        surat_2 = mt.pow(-2,3*k+1);
        maxraj_2 = 4 * (k-1) * mt.pow(x,3*k+1);
        if (maxraj_2 == 0):
            continue
        S = S + P * surat_2 / maxraj_2;
    print('Masalaning javobi = %3.4f \n\n' % (S) )

```

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday mantiqiy munosabatlar bor?
2. Tarmoqlanuvchi algoritmning blok-sxamasini ko’rsating.
3. Tarmoqlanuvchi algoritmning operatorlari qanaqa?
4. Mantiqiy operatsiya – bu qanaqa operatsiya?
5. Mantiqiy ko‘paytirish (konyuksiya) operatorini qanday?
6. Mantiqiy qo‘sish (dizyunksiya) operatorini qanday?
7. Kodni bajarish natijasi qanday bo'ladi?

b = 12
if a % 3 == 0:
print("Yes")
else:
print("No")

8. Sikl nechi marta bajariladi ?
for k in range(7,12):
9. Siklda continue operatori nima qiladi?
10. Siklda break operatori nima qiladi?
11. Mantiqiy masalaning yechimini ko'rsating

a = True; b = True
result = a and b

```
print(result)
```

12. Mantiqiy masalaning yechimini ko'rsating

a = False; b = False

result = a and b

```
print(result)
```

13. Mantiqiy masalaning yechimini ko'rsating

a = True; b = True

result = a or b

```
print(result)
```

14. Mantiqiy masalaning yechimini ko'rsating

a = False; b = True

result = a or b

```
print(result)
```

3-MAVZU: MASSIVLAR BILAN ISHLASH. GRAFIKLAR CHIZISH USULLARI (2 soat)

Reja:

1. Bir o'lchamli va ikki o'lchamli massivlarni shakillantirish
2. Elementlari bilan ishlah.
3. Tasodifiy jarayonlar xaqida tushuncha va tasodifyi sonlar bilan ishlah.
4. Grafiklar chizish usullari.
5. matplotlib, pyplot bibliotekasi parametrlari, ular yordamida turli shakildagi grafik va gistogrammalarni chizish.

Massivlar

Massiv nima?

Massiv - bu bir xil turdag'i ma'lumotlarni (masalan, sonlar, matnlar, obyektlar) ketma-ket saqlash uchun ishlataladigan ma'lumotlar strukturasi. Massivlarning har bir elementi indeks orqali murojaat qilinadi (odatda 0 dan boshlanadi).

Pythonda massivlarga o'xshash struktura **ro'yxat** (**list**) hisoblanadi. Pythonning o'zida aniq massiv tushunchasi yo'q, lekin ro'yxatlar massiv vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, array moduli yoki NumPy kutubxonasi orqali aniq massivlarni ham ishlatish mumkin.

Massiv - bu bir xil turdag'i ma'lumotlarni (masalan, sonlar, matnlar, obyektlar) ketma-ket saqlash uchun ishlataladigan ma'lumotlar strukturasi. Massivlarning asosiy xususiyati shundaki, ularning barcha elementlari bir xil turga ega bo'ladi (masalan, faqat butun sonlar yoki faqat haqiqiy sonlar). Bu xususiyat massivlarni samarali va tezkor ishlash imkonini beradi.

Massivlarning har bir elementi indeks orqali murojaat qilinadi. Indekslar odatda 0 dan boshlanadi. Masalan, birinchi element indeksi 0, ikkinchi element indeksi 1 va hokazo.

Massivlarning asosiy xususiyatlari:

Bir xil turdag'i ma'lumotlar: Massiv elementlari bir xil turdag'i bo'lishi kerak (masalan, faqat butun sonlar yoki faqat matnlar).

Ketma-ket joylashgan xotira: Massiv elementlari xotirada ketma-ket joylashgan bo'ladi. Bu xususiyat massivlarga tez kirish imkonini beradi.
Indeks orqali murojaat: Har bir elementga indeks orqali murojaat qilish mumkin.

O'lchami belgilangan: Massivning o'lchami (elementlar soni) odatda oldindan belgilanadi va o'zgartirilmaydi (lekin ba'zi tillarda dinamik massivlar mavjud).

Massivlarning afzalliklari:

Tez kirish: Massiv elementlariga indeks orqali tezda kirish mumkin. Bu operatsiya $O(1)O(1)$ vaqtida amalga oshiriladi.

Samaradorlik: Massivlar xotirada ketma-ket joylashganligi sababli, ular bilan ishslash juda samarali.

Oddiylik: Massivlarni tushunish va ishlatish juda oson.

Massivlarning kamchiliklari:

O'lchami cheklangan: Massivning o'lchami oldindan belgilanadi va uni o'zgartirish qiyin (lekin dinamik massivlar bu muammoni hal qiladi).

Elementlarni qo'shish/o'chirish qiyin: Massivga yangi element qo'shish yoki elementni o'chirish qiyin, chunki bu boshqa elementlarni siljитishni talab qiladi.

Xotira sarfi: Massivning o'lchami katta bo'lsa, u ko'p xotira egallashi mumkin.

Massivlarning turlari:

Bir o'lchamli massiv: Oddiy ro'yxat shaklida. Misol uchun: [1, 2, 3, 4, 5].

Ko'p o'lchamli massiv: Matritsa yoki kublar shaklida. Misol uchun, 2D massiv (matritsa):

```
[ [1, 2, 3],  
  [4, 5, 6],  
  [7, 8, 9]  
 ]
```

Pythonda massivlar (ro'yxatlar) bilan ishslash

Pythonda massivlarga eng yaqin struktura **ro'yxat** (**list**) hisoblanadi. Ro'yxatlar massivlarning barcha xususiyatlariga ega, lekin ular dinamik va turli turdag'i ma'lumotlarni saqlashi mumkin.

Ro'yxat yaratish

```
mevalar = ["olma", "banan", "anor", "uzum"]
```

```
# Elementga murojaat qilish  
print(mevalar[0]) # "olma"
```

```
# Ro'yxat uzunligi  
print(len(mevalar)) # 4
```

```
# Ro'yxatga yangi element qo'shish  
mevalar.append("nok")  
print(mevalar) # ["olma", "banan", "anor", "uzum", "nok"]  
  
# Ro'yxatdan elementni o'chirish  
mevalar.remove("banan")  
print(mevalar) # ["olma", "anor", "uzum", "nok"]
```

NumPy massivlari

Agar sizga aniq massivlar kerak bo'lsa (masalan, sonlar massivi), NumPy kutubxonasidan foydalanishingiz mumkin. Bu kutubxona yuqori samaradorlik bilan ishlaydi va katta ma'lumotlar to'plamlari bilan ishlashda qulay.

```
import numpy as np
```

```
# NumPy massivi yaratish  
massiv = np.array([1, 2, 3, 4, 5])
```

```
# Massiv ustida amallar  
print(massiv * 2) # [2, 4, 6, 8, 10]  
print(massiv + 10) # [11, 12, 13, 14, 15]
```

Massivlarning xotirada joylashishi

Massiv elementlari xotirada ketma-ket joylashgan bo'ladi. Bu xususiyat massivlarga tez kirish imkonini beradi. Misol uchun, agar massivning birinchi elementi 0x1000 manzilda joylashgan bo'lsa, ikkinchi elementi 0x1004 manzilda joylashadi (4 bayt butun son uchun).

Massivlar — bu bir xil turdag'i ma'lumotlarni ketma-ket saqlash uchun ishlatiladigan asosiy ma'lumotlar strukturasi. Ular tez kirish, samaradorlik va oddiylik kabi afzalliklarga ega. Pythonda ro'yxatlar massiv vazifasini bajaradi, lekin aniq massivlar uchun NumPy kabi kutubxonalardan foydalanish mumkin.

Pythonda ro'yxatlar (massivlar) bilan ishlash

1. Ro'yxat yaratish

Ro'yxat kvadrat qavslar [] ichida elementlarni vergul bilan ajratib yoziladi.

```
python
```

```
mevalar = ["olma", "banan", "anor", "uzum"]  
sonlar = [1, 2, 3, 4, 5]
```

aralash = [10, "salom", True, 3.14]

2. Ro'yxat elementlariga murojaat qilish. Ro'yxat elementlariga indeks orqali murojaat qilish mumkin. Indekslar 0 dan boshlanadi.

python

```
print(mevalar[0]) # "olma"  
print(sonlar[2]) # 3
```

Agar indeks ro'yxat chegarasidan tashqarida bo'lsa, IndexError xatoligi yuzaga keladi.

3. Ro'yxatga yangi element qo'shish

append() metodi orqali ro'yxat oxiriga element qo'shish:

python

```
mevalar.append("nok")  
print(mevalar) # ["olma", "banan", "anor", "uzum", "nok"]
```

insert() metodi orqali istalgan joyga element qo'shish:

python

```
mevalar.insert(1, "gilos")  
print(mevalar) # ["olma", "gilos", "banan", "anor", "uzum",  
"nok"]
```

4. Ro'yxatdan element o'chirish

remove() metodi orqali qiymat bo'yicha elementni o'chirish:

python

```
mevalar.remove("banan")  
print(mevalar) # ["olma", "gilos", "anor", "uzum", "nok"]
```

pop() metodi orqali indeks bo'yicha elementni o'chirish:

python

```
mevalar.pop(2) # 2-indeksdagi "anor" ni o'chiradi  
print(mevalar) # ["olma", "gilos", "uzum", "nok"]
```

5. Ro'yxatni kesib olish (slicing)

Ro'yxatning bir qismini kesib olish uchun [:] sintaksisidan foydalaniladi.

python

```
print(sonlar[1:3]) # [2, 3] (1-indeksdan 3-indeksgacha, 3 kirmaydi)  
print(sonlar[:3]) # [1, 2, 3] (boshidan 3-indeksgacha)  
print(sonlar[2:]) # [3, 4, 5] (2-indeksdan oxirigacha)
```

6. Ro'yxat uzunligi

Ro'yxat uzunligini len() funksiyasi orqali aniqlash mumkin.

python

```
print(len(mevalar)) # 4
```

7. Ro'yxatni aylantirish

Ro'yxatni teskari tartibda chiqarish uchun [::-1] dan foydalaniladi.

```
python
print(sonlar[::-1]) # [5, 4, 3, 2, 1]
```

8. Ro'yxatni saralash

sort() metodi orqali ro'yxatni saralash:

```
python
sonlar.sort()
print(sonlar) # [1, 2, 3, 4, 5]
```

Teskari tartibda saralash:

```
python
sonlar.sort(reverse=True)
print(sonlar) # [5, 4, 3, 2, 1]
```

9. Ro'yxatni qo'shish

Ikki ro'yxatni + operatori yordamida birlashtirish mumkin.

```
python
yangi_mevalar = mevalar + ["anjir", "qovun"]
print(yangi_mevalar) # ["olma", "gilos", "uzum", "nok", "anjir",
"qovun"]
```

10. Ro'yxatni takrorlash

Ro'yxat elementlari ustida for tsikli orqali yurish mumkin.

```
python
for meva in mevalar:
    print(meva)
```

NumPy massivlari

Agar sizga aniq massivlar kerak bo'lsa, NumPy kutubxonasidan foydalanishingiz mumkin. Bu kutubxona yuqori samaradorlik bilan ishlaydi va katta ma'lumotlar to'plamlari bilan ishlashda qulay.

```
python
import numpy as np

massiv = np.array([1, 2, 3, 4, 5])
print(massiv) # [1 2 3 4 5]
```

Grafiklar chizish

Python vektor va matritsalar ko'rinishidagi ma'lumotlarni, hisob-kitob natijalarini grafik ko'rinishda ifodalash va tasvirlash, shuningdek sharhlarni yaratish va shu grafikalarni saqlash uchun keng imkoniyatlarga ega. Ushbu paragrafda astronomiyada qo'llaniladigan ba'zi muhim grafik funksiyalar va ularning imkoniyatlari tasvirlangan, shuningdek, ularni


qo'llash misollari keltirilgan. Shu bilan birga, bu paragrafda biz ma'lumotlarni oddiy tekst fayllaridan o'qib olishni va qayta yozishni o'rghanib olamiz.

Shunda eng ko'p qo'llaniladigan plot funksiyasidir. Lekin bunday funksiyadan foydalanish uchun matplotlib.pyplot kutubxonasiga murojjat qilish kerak bo'ladi. Uning argumentlari turli bo'lishi mumkin. x , y , t – biron bir kattaliklarning qiymatlari uchun vektor ko'rinishidagi massivlar bo'lsin. Agar grafik funksiyasini $\text{plot}(y)$ ko'rinishida bersak, unda y elementlarini indekslariga bog'langan chiziqli grafigini ko'ramiz. Agar bu funksiyani $\text{plot}(t,y)$ deb chaqirsak, unda y ning t ga nisbatan bog'liqligini ko'rsatadi.

14-Misol. Oddiy trigonometrik funksiyalarning $[-2\pi; 2\pi]$ oraliqdagi grafiklarini ko'ramiz.

```
import numpy as np
t = np.linspace(-2* np.pi, 2* np.pi, 100)
# x va y massivni yaratib, bittasiga t ning Sinusini,
## ikkinchisiga Cosinusini beramiz
x = np.sin(t);  y = np.cos(t);
# cosinusning grafigini ko'ramiz
import matplotlib.pyplot as plt
plt.plot(t,x)
plt.plot(t,y)
```

Natijada **Grafiki** nomli oynada biz so'ragan grafikni ko'ramiz (6-rasm).



Bitta grafikda bir nechta funksiya yoki bog'lanishni ko'rsatsa

bo‘ladi. Buni bir nechta yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi. Ikkalasining natijasi 7-rasmdagi grafik bo‘lib chiqadi.

plot(t,x, t,y)

plot(t,x)

plot(t,y)

Ko‘rsatilganidek, turli bog‘lanishlarni ketma-ket vergul orqali kirlitsa bo‘ladi (chap tomonda). Ammo bu yo‘l bilan ishlasak, quyida ko‘rsatilgan grafiklar parametrlarini boshqarish qiyin bo‘lib qoladi – yozuvlar juda uzun bo‘ladi va xatoliklar kirishi ehtimoli oshadi. Buning o‘rniga o‘ng tomonda ko‘rsatilgan hold on operatoridan foydalanamiz. U ketma-ket chiziqlarni bitta rasmda ko‘rsatishga imkon beradi. Unga teskari hold off operatori bu rejimni o‘chiradi (agarda buni yozmasak, chiziqlar ustma ust tushaveradi).

Bundan tashqari grid on operatori ham qo‘sildi. U, kerak bo‘lganda, grafikda xira rangdagi to‘rni hosil qiladi. Uni olib tashlash kerak bo‘lsa grid off deb yoziladi. Bu to‘r grafiklarda bormi yoki yo‘qligini visual ravishda ko‘rib olishga imkon beradi.


Yuqorida ko‘rsatilgan misollarda grafiklarning ranglari Spyder tomonidan avtomatik ravishda tanlanadi, chiziqlarning ko‘rinishi oddiy tekis o‘zgaradigan egri chiziq bilan ko‘rsatiladi. Ammo bu yerda qaysi grafik aynan qaysi funksiyaga tegishlilagini bir nazardan aniqlab olish oson emas. Bu masalani osonlashtirish uchun grafikning parametrlarini (chiziq va nuqtalarning rangi va shakli, o‘qlari va yozuvlarning shrift va hokazolar) boshqarish kerak. Shunda grafiklarni o‘qish, tushunib olish ancha qulay bo‘ladi. Nimalarni boshqarsa va o‘zgartirsa bo‘ladi? Avval chiziqlarning shaklini ko‘ramiz

Chiziqning ko‘rinishi (Line Style)	Tavsifi	Ko‘rinishi
"_"	Uzluksiz chiziq	_____
"--"	Shtrixli chiziq	- - - - -
Punktirli chiziq	
"-.."	Shtrix-punktirli chiziq	- - - - -

Keyin nuqtalarning shaklini belgilasa bo‘ladi.

Nuqtaning belgisi (Marker)	Tavsifi	Nuqtaning ko‘rinishi	Nuqtaning belgisi (Marker)	Tavsifi	Nuqtaning ko‘rinishi
"o"	Aylana	○	"+"	Plyus belgisi	+
"*"	Yulduzcha	*	". "	Nuqta	•
"x"	Xoch	×	"_ "	Gorizontal chiziq	—
" "	Vertikal chiziq		"square"	Kvadrat	□
"diamond"	Romb	◇	"^"	Tepaga qaragan uchburchak	△
"v"	Pastga qaragan uchburchak	▽	O‘ngga qaragan uchburchak	▷	
"<"	Chapga qaragan uchburchak	◁	"pentagram"	Besh qirrali yulduz	☆
"hexagram"	Olti qirrali yulduz	◊			

Endi chiziq va nuqtalarning ranglarini ham belgilasa bo‘ladi.

Rang	Qisqacha belgisi	RGB uchtaligi	Nomi	Ko‘rinishi
"red"	"r"	[1 0 0]	Qizil	
"green"	"g"	[0 1 0]	Yasxil	
"blue"	"b"	[0 0 1]	Ko‘k	
"cyan"	"c"	[0 1 1]	Moviy	
"magenta"	"m"	[1 0 1]	Binafsha	
"yellow"	"y"	[1 1 0]	Sariq	
"black"	"k"	[0 0 0]	Qora	
"white"	"w"	[1 1 1]	Oq	

Rang	Qisqacha belgisi	RGB uchталыгы	Nomi	Ko‘rinishi
"none"	Rang umuman yo‘q bo‘lgan hollarda belgilanadi. Belgi, nomi, ko‘rinishi va boshqalari mavjud emas			

Keyingi masala kelib chiqadi – bu parametrlar qanday kiritiladi? Buning ham bir necha yo‘li bor. Bittasida hamma parametrlarni plot funksiyasi ichida qo‘sishimcha argument sifatida bersa bo‘ladi:

plot(t,x,’b--d’)


hold on

plot(t,y,’r-o’)

Bu yerda ‘b--d’ va ‘r-o’ chiziqlarning rangini, ko‘rinishi hamda nuqtaning shakli ko‘rsatilgan. Aynan shu tartibda bo‘lishi shart emas. Lekin grafiklarning argumentlarini shu tartibda beradigan bo‘lsa, buyruqlarimiz juda uzun bo‘lib ketishi mumkin, chunki chiziq, nuqtalar, yozuvlarning parametrlarini ham o‘zgartirish kerak bo‘lib qolishi mumkin. Parametrlarni alohida belgilash yo‘li bor:

15-Misol. Grafikni chizish

```
import numpy as np
t = np.linspace(-2* np.pi, 2* np.pi, 40)
# x va y massivni yaratib, bittasiga t ning Sinusini,
#% ikkinchisiga Cosinusini beramiz
x = np.sin(t); y = np.cos(t);
import matplotlib.pyplot as plt
line, = plt.plot(t,x) ;
line.set_color('r'); #Chiziqning rangi belgilandi
line.set_linestyle('-'); #Chiziqning ko‘rinishi belgilandi
line.set linewidth(2); #Chiziqning qalinligi belgilandi
line.set_marker('o'); #Nuqtaning shakli belgilandi
line.set_markersize(10); #Nuqtaning o‘lchami belgilandi
line.set_markeredgecolor('b'); #Nuqtaning chetki rangi belgilandi
line.set_markerfacecolor('g'); #Nuqtaning ichki rangi belgilandi
plt.show()
```



Bu bilan biz grafikni ixtiyoriy talab etilgan shaklga keltirishimiz mumkin. Rangga kelsak, uning xilma-xilligi ko'rsatilgan 7 rang bilan chegaralanmaydi. RGB uchitaligi yordamida xohlagan rangni belgilasa bo'ladi. RGB uchitaligi – bu uch elementli qatorli vektordir. Uning elementlari rangning qizil, yashil va ko'k qismlarining intensivliklarini belgilaydi. Intensivlik [0,1] oralig'ida bo'lishi kerak. Shunda rangni, masalan, quyidagicha ham belgilasa bo'ladi: g.Color = [1 0 0.2]; g.MarkerEdgeColor = [0.2 0.1 1]; g.MarkerFaceColor = [0.73 1 0.36]; Endi grafikning o'qlarini ko'rsatamiz, kerak bo'ladigan yozuvlarni kiritamiz.

16-Misol. Grafik funksiyaning parametrlarini belgilash


```
import numpy as np
t = np.linspace(-2* np.pi, 2* np.pi, 60)
# x va y massivni yaratib, bittasiga t ning Sinusini,
# ikkinchisiga Cosinusini beramiz
x = np.sin(t); y = np.cos(t);
import matplotlib.pyplot as plt
g, = plt.plot(t,x,label='Sin(t)') ; p, = plt.plot(t,y,label='Sos(t)');
#Chiziqning rangi belgilandi
g.set_color((1, 0, 0.2)); p.set_color((0, 0.7, 1));
g.set_linestyle('-'); p.set_linestyle('-') #Chiziqning ko'rinishi belgilandi
g.set linewidth(2); p.set linewidth(2) #Chiziqning qalinligi belgilandi
g.set_marker('o'); p.set_marker('s') #Nuqtaning shakli belgilandi
g.set_markersize(7); p.set_markersize(7) #Nuqtaning o'lchami belgilandi
#Nuqtaning chetki rangi belgilandi
g.set_markeredgecolor((0.2, 0.1, 1)); p.set_markeredgecolor('r')
#Nuqtaning ichki rangi belgilandi
```

```
g.set_markerfacecolor((0.73, 1, 0.36)); p.set_markerfacecolor('y')
```

```
#Chiziqlar yonida izohlar kiritiladi  
plt.text(2.85, 0.4, ' sin(t)', fontsize=12)  
plt.text(-2.5, 0.4, ' cos(t)', fontsize=12)
```


```
#Chiziqlarning alohoda izohi kiritiladi  
plt.legend()  
#Grafikda to'r kiritildi  
plt.grid(True, alpha=0.5)  
#Grafikni tushuntiradigan yozuvlar kiritiladi  
plt.title('Trigonometrik funksiyalar');  
plt.xlabel('Vaqt (t)'); plt.ylabel('SIN(t), COS(t)');  
#O'qlarning o'lchamlari belgilanadi  
plt.axis((-5, 5, -1, 1));  
#O'qlardagi yozuvlarning o'lchami boshqariladi  
ax = plt.gca(); ax.tick_params(axis='both', labelsize=15)
```

```
# Grafikni ko'rsatilgan formatda saqlasa bo'ladi  
plt.savefig('plot.png', bbox_inches='tight', dpi=600)  
plt.savefig('plot.jpg', bbox_inches='tight', dpi=600) # Grafikni JPEG  
formatida saqlab beradi  
plt.savefig('plot.pdf', bbox_inches='tight', dpi=600) # Grafikni PDF  
formatida saqlab beradi
```



xlabel('Vaqt (t)') va ylabel('SIN(t), COS(t)') funksiyalar yordamida gorizontal va vertikal o'qlarda yotgan kattaliklar haqida ma'lumot beramiz. title('Trigonometrik funksiyalar') deb grafik haqida umumiy

ma'lumot beriladi. `legend('sin(t)', 'cos(t)')` – bu funksiyadagi ma'lumotlar har bir chiziq nima ekanligini oydinlashtiradi. `axis([-5 5 -1 1])` – gorizontal va vertikal o'qlarning quyi va yuqori chegaralarini belgilaydi. Misolni tahlil qilganda boshqacha qiymatlar berib, nima bo'lishini ko'rsangiz bo'ladi. `text(pi, 0, ' sin(pi)', 'FontSize', 18)` funksiyasi yordamida grafiklarga tekst ko'rinishidagi izohlarni kirlitsa bo'ladi. Bu yerda `pi, 0` – mos ravishda gorizontal va vertikal o'qlar bo'yicha koordinatalar, `' sin(pi)'` – o'rnatilishi kerak bo'lgan yozuv, `'FontSize'`, 18 – shrift kattaligi. `ax = gca;` `ax.FontSize = 16` parametrlar yordamida o'qlardagi shriftlar boshqariladi.



Endi turli bog'liqliklarni bitta grafikka emas, balki bitta rasmida joylashgan bo'lishi kerak degan talab etilsa, `subplot(n,m,p)` komandasidan foydalanamiz (17-Misolga qara). Bu yerda `n` – satrlar soni, `m` – ustunlar soni, `p` – tartib raqami.


Keyinchlik, differensial va harakat tenglamalarni sonli yechganimizda, natijalarni tahlil qilish uchun sinov nuqta yoki jismning harakatini ko'rishimiz kerak bo'ladi. Bunda comet yoki addpoints komandalaridan foydalanamiz.

Ikki o‘lchamli grafiklar kabi uch o‘lchamli grafiklarni ham chizamiz.

19-Misol. Ikki o‘lchamli grafiklar

```
import matplotlib.pyplot as plt
import numpy as np
from mpl_toolkits.mplot3d import Axes3D # Импорт для 3D-
графиков

# Создаем данные
t = np.arange(0, 10, 0.1)
x = np.sin(t); y = np.cos(t)
# Создаем 3D-график
fig = plt.figure() # Создаем фигуру
ax = fig.add_subplot(111, projection='3d') # Добавляем 3D-
подграфик
# Строим график
ax.plot3D(t, x, y, label='3D Curve') # Аналог plot3 в MATLAB
# Добавляем подписи осей и заголовок
ax.set_xlabel('t'); ax.set_ylabel('x')
ax.set_zlabel('y'); ax.set_title('3D Plot')
ax.legend()
plt.show()
```




Astronomiyada histogrammalar ham ko‘p ishlataladi. Histogramma bu – biron bir kattalikning qiymatlari bo‘yicha taqsimlanganligi ko‘rsatadigan grafik. Boshqacha qilib aytganda, biron bir kattalikning ehtimolligi zichligidir. Masalan, normal taqsimlangan tasodifiy sonlarning

istogrammasini yarating, degan masala qo‘yildi. Tasodify sonlarni generator komandasini yordamida hosil qilamiz, natijasini histogramma ko‘rinishiga olib kelamiz.

20-Misol. Gistogrammalar uchun misollar

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt

# Tasodify sonlarni generatsiyasi
y = np.random.randn(100000)
# Histogrammani chizish
plt.hist(y, bins=60, edgecolor='black')
# Izohlarni kiritamiz
plt.xlabel('Qiymatlari'); plt.ylabel('Chastotasi')
plt.title('Tasodify sonlarning normal taqsimoti')
# Grafikni ko'rsatamiz
plt.show()
```



NAZORAT SAVOLLARI

1. Massivning izohini keltiring. Massivning elementlari qanday chaqiriladi?
2. Pythonda birinchi elementning indeksi nechiga teng?
3. Massivning asosiy xususoyatlarini sanab bering
4. Bitta massivda turli tipdagи elementlar bo‘lishi mumkinmi?
5. Qaysi funksiya yordamida massivga yangi elementi qo’sha bo’ladi?
6. Qaysi funksiya yordamida massivga yangi elementi olib tashlasa bo’ladi?
7. len() funksiyasi qanaqa kattalikni beradi?

8. Qaysi funksiya yordamida massivning ixtiyoriy joyiga yangi elementno qo'shsa bo'ladi ?
9. Qaysi funksiya yordamida massivning oxiriga yangi elementno qo'shsa bo'ladi ?
10. A.insert(n,b) komandasi nimani amalga oshiradi?
11. *import matplotlib.pyplot* buyrug'i nimani bajaradi?
12. plt.plot(x, np.sin(x), 'r-o') komandasi grafik chizadi. Uning rangi, ko'rinishi va nuqtakarning shakli qanaqa bo'ladi?

4-MAVZU: INTEGRALLASH HAMDA ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMANI YECHISH SONLI USULLARI

REJA

5. Sonli integrallash usullari algiritmlari: to‘g‘ri burchaklar, trapetsiyalar, parabolalalr (Simpson) usullari va algoritmlari.
6. Ular yordamida aniq integrallarni hisoblash.
7. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish usullari va algoritmlari.
8. Mexanik harakatlarni modellashtirish

Integrallarni hisoblash usullari

Integrallash matematikada va fizikada juda muhim hisoblash usuli hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi, biror miqdorning o'zgarishini hisoblash yoki biror maydon, hajm, ish, energiya kabi fizik miqdorlarni hisoblashda qo'llaniladi.

Integrallash (integral) matematikada funksianing ma'lum bir oraliq bo'yicha yig'indisini hisoblash jarayoni hisoblanadi. U differensiallashning teskarisi sifatida ham talqin qilinadi. Integrallashning asosiy maqsadi, funksiya ostidagi maydonni, hajmni, yoki biror uzuksiz miqdorni hisoblashdir.

Integrallashning rasmiy ta'rifi: *Integrallash, funksianing ma'lum bir oraliqda (masalan, aa dan bb gacha) qiymatlarini yig'ish jarayoni hisoblanadi.* Bu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\int_a^b f(x)dx,$$

bu yerda: $f(x)$ – integrallanadigan funksiya,

a va b — integrallash chegaralari (pastki va yuqori chegaralar),

dx – o'zgaruvchining differensiali (masalan, xx o'zgaruvchisining kichik o'zgarishi).

Integrallashning fizikadagi mohiyati: *Integrallash, asosan, biror miqdorning kichik qismlarini yig'ish orqali umumiy qiymatni topish jarayoni hisoblanadi.*

Fizikada bu jarayon ko'pincha quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Maydon yoki hajmni hisoblash:

Masalan, biror egri chiziq ostidagi maydonni hisoblashda integrallash qo'llaniladi. Agar sizda $f(x)$ funksiya bo'lsa, uning a dan b gacha bo'lgan integrali shu funksiya ostidagi maydonni beradi:

$$Maydon = \int_a^b f(x) dx,$$

2. Ish va energiya:

Fizikada ish, kuch va masofa orqali hisoblanadi. Agar kuch $F(x)$ masofaga bog'liq bo'lsa, u holda a dan b gacha bo'lgan masofada bajarilgan ish:

$$Ish = \int_a^b F(x) dx,$$

Xuddi shu tarzda, energiyani ham integrallash orqali hisoblash mumkin.

3. Tezlik va masofa:

Agar sizda tezlik $v(t)$ vaqtga bog'liq bo'lsa, u holda t_1 dan t_2 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida bosib o'tilgan masofa:

$$Masofa = \int_{t_1}^{t_2} v(t) dt,$$

4. Zaryad va tok:

- Elektr zaryadi q va tok $I(t)$ orasidagi bog'lanish:

$$q = \int I(t) dt$$

bu yerda tok vaqt bo'yicha integrallanib, zaryadni beradi.

Misol: Aytaylik, sizda bir jismning tezligi $\mathbf{v}(t) = 3t^2 + 2t$ (bu yerda t vaqt) bo'lsin. Siz 0 dan 5 soniyagacha bo'lgan vaqt oralig'ida bosib o'tilgan masofani topmoqchisiz. Buning uchun tezlikni vaqt bo'yicha integrallaysiz:

$$Masofa = \int_0^5 (3t^2 + 2t) dt,$$

bu integralni hisoblab, masofani topishingiz mumkin.

Integrallash fizikada biror miqdorning kichik qismlarini yig'ish orqali umumiy qiymatni topish uchun ishlataladi. Bu jarayon maydon, ish, energiya, masofa va boshqa ko'plab fizik miqdorlarni hisoblashda qo'llaniladi.

Integral bu matematik tahlilning eng muhim tushunchalaridan biri. Integral egri chiziq ostidagi maydonni topish muammolarini hal qilishda, notekis harakat bilan bosib o'tgan yo'lni hisoblashda, funktsiyani uning hosilasi bo'yicha tiklash masalalarida, bir jinsli bo'limgan jismlarning massalari aniqlash va boshqa masalalarni yechishda keng qo'llaniladi. Soddalashtirilgan holda, integralni cheksiz sonli cheksiz kichik hadlarning yig'indisi sifatida ifodalash mumkin. Sonli usullar sohasida odatda aniq integrallar bilan ish tutiladi:

$$F(x) = \int_a^b f(x) dx,$$

bu yerda $f(x)$ – integral ostidagi funksiya, $[a, b]$ – integrallash chegaralari.

Spyderda sistemasida aniq va noaniq integrallarni yechish uchun turli

imkoniyatlar mavjud. Integrallarni sonli usullar bilan hisoblaganda integral ostidagi funksiyani iloji boricha soda ko‘rinishga keltirish kerak bo‘ladi, chunki bu hisob-kitoblarni soddalashtiradi. Qaysi usul bilan ishlashni odatda foydalanuvchining o‘zi tanlaydi. Bu usullarning hammasi taqribiy qiymatlarni berishini esdan chiqarmaslik kerak.

Integrallarni hisoblash uchun qator sonli formulalr mavjud – to‘g‘riburchaklar, trapetsiyalar, parabolalar (Simpson) usullari. Ularni bo‘yicha hisoblash juda oson – oddiy sikl yordamida amalga oshirsa bo‘ladi.

Xuddi differensial tenglamalardagi misollardek, quyidagi misollarni shablon sifatida ishlatas bo‘ladi – qizil rang bilan belgilangan yozuvlarni masalaga moslashtirilsa bo‘ldi.

To‘g‘ri burchaklar formulasida integrallash $[a, b]$ diapazoni n ta bo‘lakka bo‘linadi va funksianing k -inchi ($k = 1, 2, \dots, n$) tugunlardagi y_k qiymatlarinig yig‘indisi olinadi. Oxirida summa $h = (b - a)/n$ integrallash qadamiga ko‘paytiriladi:

$$\int_a^b f(x) dx = h \sum_{k=1}^n y_k$$

$\int_1^2 \frac{dt}{t^3} dt$	$\int_{0.6}^{\pi/3} \sin x dx$
<pre> import numpy as np import math as mt # Integrallash diapazoni a = 1; b = 2; # Bo‘laklar soni va integrallash qadami n = 1000; h=(b-a)/n; # Argumentning tug‘unlardagi qiymatlari t = np.linspace(a, b, n) # Summaning birinchi hadi S = 0; for k in range(1,n): # Integral ostidagi funksiya S = S + mt.sin(y[k]); S = S * h; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) </pre>	<pre> import numpy as np import math as mt # Integrallash diapazoni a = 0.6; b = mt.pi/3; # Bo‘laklar soni va integrallash qadami n=1000; h=(b-a)/n; # Argumentning tugunlardagi qiymatlari y = np.linspace(a, b, n) # Summaning birinchi hadi S = 0; for k in range(1,n): # Integral ostidagi funksiya S = S + mt.sin(y[k]); S = S * h; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) # Integral S = 0.3253 ga teng </pre>

# Integral S = 0.3750 ga teng	
-------------------------------	--

To‘g‘ri burchaklar formulasida integrallash $[a, b]$ diapazoni n ta bo‘lakga bo‘linadi va funksiyaning tugunlardagi y_k qiymatlarinig yig‘indisi olinadi, faqat birinchi va oxirgi hadlarning yarmi olinadi. Oxirida summa integrallash qadami h ga ko‘paytiriladi:

$$\int_a^b f(x) dx = h \left(\frac{y_1 + y_n}{2} + \sum_{k=2}^{n-1} y_k \right)$$

$y_1 = f(a)$ va $y_n = f(b)$ – integral osti funksiyaning integrallash diapazonining chegaralaridagi qiymatlari.

$\int_1^5 \frac{1}{x} dx$	$\int_0^1 \frac{1}{1+x^2} dx$
<pre>import numpy as np import math as mt a=1; b=5; n=1000000; h=(b-a)/n; y = np.linspace(a, b, n) S = 0; for k in range(2,n-1): S = S + 1 / y[k]; S = S + (y[0] + y[n-1]) / 2; S = S * h; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) # Integral S = 1.6096 ga teng</pre>	<pre>import numpy as np import math as mt a = 0; b = 1; n = 10000; h = (b-a) / n; y = np.linspace(a, b, n) S = a; for k in range (1,n-1): S = S + 1 / (1 + mt.pow(y[k],2)) S = S + (y[0] + y[n-1]) / 2; S = S * h; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) # Integral S = 0.7853 ga teng</pre>

Simpson formulasida toq indeksli hadlari 4 ko‘paytiriladi, juft indeksli hadlar 2 ko‘paytiriladi, birinchi va oxirgisi o‘zgarmaydi. Hammasi yig‘iladi hamda integrallash qadamining uchda biriga ko‘paytiriladi:

$$\int_a^b f(x) dx = \frac{h}{3} (y_1 + 2y_2 + 4y_3 + 2y_4 + 4y_5 + \cdots + y_n)$$

$\int_0^3 \sqrt[3]{x} dx$	$\int_0^{\pi/6} \sqrt{\tan x} dx$
<pre> import numpy as np import math as mt a = 0; b = 3; n = 1000000; h = (b-a) / n; y = np.linspace(a, b, n) S1 = 0; S2 = 0; for k in range(1,n-1,2): S1 = S1 + mt.pow(y[k],3/2) * 2; for k in range (2,n-1,2): S2 = S2 + mt.pow(y[k],3/2) * 4; S = (S1 + S2 + y[0] + y[n-1]) * h / 3; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) # Integral S = 6.2354 ga teng </pre>	<pre> import numpy as np import math as mt a = 0; b = mt.pi/6; n = 10000; h = (b-a) / n; y = np.linspace(a, b, n) S1 = 0; S2 = 0; for k in range(1,n-1,2): S1 = S1 + mt.sqrt(mt.tan(y[k-1])) * 2; for k in range(3,n-1,2): S2 = S2 + mt.sqrt(mt.tan(y[k])) * 4; S = (S1 + S2 + y[0] + y[n-1]) * h / 3; print('\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S) #Integral S = 0.2578 ga teng </pre>

Integrallarni hisoblash uchun MATLABda ornatilgan operatorlar mavjud. Ular orasida nisbatan oson qo'llaniladigani int funksiyasi. Uni qanday qo'llanilishini ko'rib chiqamiz:

Integral ko'rinishi
$\int_0^{\pi/3} \sin 2x dx$
Yechimi
<pre> import numpy as np from scipy.integrate import simps # Integrallash kerak bo'lgan funksiyani belgilaymiz def f(x): return np.sin(2*x) </pre>

```

# Integrallash diapazonini hamda nuqtalar sonini belgilaymiz
a = 0 # Quyi chegara
b = np.pi/3 # Yuqori chegara
n = 100 # Nuqtalar soni
x = np.linspace(a, b, n) # Nuqtalar bir tekis taqsimlanad
y = f(x) # Funksiyaning bu nuqtalardagi qiymati

# Integral Simpson usuli bilan hisoblanadi
S = simps(y, x)

print("\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S)

```

Javobi

Integral S = 0.7500 ga teng

$$\int_0^{\infty} e^{-x^2} dx$$

```

import numpy as np
from scipy.integrate import quad

```

Integrallash kerak bo'lgan funksiyani ko'rsatamiz
def f(x):

```
    return np.exp(-x**2)
```

Integralni 0 dan $+\infty$ gacha hisoblaymiz
S, error = quad(f, 0, np.inf)

```
print("\n Integral S = %2.4f ga teng \n' % S)
```

Javobi

Integral S = 0.8862 ga teng

Spyder bilan nafaqat aniq integrallani, balki simvolli amallarni ham bajarsa bo'ladi.
Ya'ni integrallarni analitik ko'rinishdagi yechimlarini topish mumkin. Masalan:

$$\int (x^2 + a) dx$$

```

import sympy as sp
# Simvilli o'zgaruvchanlarni belgilaymiz
x = sp.symbols('x')
a = sp.symbols('a') # Doimiy kattalik (parameter)
# Funksiyani ko'rsatamiz
f = x**2 + a
# Noaniq integral hisoblanadi
integral = sp.integrate(f, x)
print("Noaniq integral :", integral)

```

Javobi

Noaniq integral : a*x + x**3/3

Integral aniq qo'rinishda bo'lsa

$$\int (x^2 + a) dx$$

Unda yana bir nechta qator qo'shiladi

```
import sympy as sp
# Simvilli o'zgaruvchanlarni belgilaymiz
x = sp.symbols('x')
a = sp.symbols('a') # Doimiy kattalik (parameter)
# Funksiyani ko'rsatamiz
f = x**2 + a
# Noaniq integral hisoblanadi
integral = sp.integrate(f, x)
print("Noaniq integral :", integral)

a1 = 0
b1 = 2*sp.pi
```

```
# Aniq integral hisoblanadi
definite_integral = sp.integrate(f, (x, a1, b1))
print("Ariq integral:", definite_integral)
```

Javobi

```
# Noaniq integral : a*x + x**3/3
# Ariq integral: 2*a + 8/3
```

Differensial tenglamalarni yechish

Differensial tenglama – bu mustaqil o'zgaruvchanlar va ushbu o'zgaruvchanlarning noma'lum funksiyalaridan tashqari, shu noma'lum funksiyalarning hosilalarini ham o'z ichiga olgan tenglamaga aytamiz. Boshqacha qilib aytganda, funksiya $y(t)$, uning argumenti t hamda ushbu funksiyaning $y', y'', \dots, y(n)$ hosilalarini bir-biri bilan ulaydigan tenglama differensial tenglama deyiladi. Umumiy holda differensial tenglamani quyidagi ko'rinishda yozsa bo'ladi:

$$F(t, y', y'', \dots, y(n)) = 0$$

Berilgan ixtiyoriy t nuqtada funkfiysning $y(t)$ qiymatini topish kerak degam masala qo'yiladi

Agarda tenglamada ishtirok etayotgan noma'lum bo'lgan $y = y(t)$ funksiya bitta argunmetga bog'langan bo'lsa, unda differensial tenglama *oddiy differensial tenglama* deyiladi. Agar tenglama bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarga nisbatan noma'lum funksiyalarning xususiy hosilalarini o'z ichiga olsa, u holda tenglama *xususiy differensial tenglama* deb ataladi.

Differensial tenglamaga kiritilgan noma'lum funksiya hosilalarining eng yuqori tartibi *differensial tenglamaning tartibi* deyiladi. Birinchi tartibdagagi differensial tenglamaning ko'rinishi $F(t, y, y') = 0$. Shunda birinchi tartibdagagi tenglama funksiyaning hosilasig nisbatan quyidagicha yoziladi:

$$y' = f(t, y) \Leftrightarrow \frac{dy}{dt} = f(t, y)$$

Ikkinci tartibdagisi esa $F(t, y, y', y'') = 0$

$$y'' = f(t, y, y') \Leftrightarrow \frac{d^2y}{dt^2} = f(t, y, y').$$

Biz bu yerda faqat oddiy differensial tenglamalarni ko'ramiz. Shu bilan birga, astronomik va fizik jarayonlarning dinamikasini tavsiflashda ushbu jarayonlarni xarakterlovchi barcha kattalilar vaqtga bog'liq bo'lganligi sababli mustaqil o'zgaruvchini t bilan belgilaymiz.

Fizikadagi ko'plab masalalar differensial tenglamalarni yechishga olib keladi. Buning sababi shundaki, fizik jarayonlarni tavsiflovchi deyarli barcha fizik qonunlar turli funksiyalarga nisbatan differensial tenglamalardir. Ushbu fizik qonunlar ko'plab tajribalarning nazariy umumlashtirilishini ifodalaydi va o'rganilayotgan kattaliklarni umumiyl holda ham fazodagi ham vaqt davomidagi o'zgarishini ko'rsatadi. Xususan, Nyutonning ikkinchi qonuni ikkinchi tartibdag differensial tenglama:

$$m \frac{d^2r}{dt^2} = F(t, r, v,) \quad (1)$$

Shunda dinamikaning asosiy masalasi dinamikaning asosiy masalasi moddiy nuqtaning F kuchi ta'sirida harakat qonunini $r = r(t)$ aniqlashdir. Bu esa matematik jihatda (25) tenglamaning yechimini bildiradi va shu nuqtaning koordinatalarini vaqtga nisbatan funksiyalarini $x = x(t), y = y(t), z = z(t)$ belgilaydi.

Odatda, yuqoridagi ko'rinishdagi tenlamalar cheksiz sonli yechimlarga ega bo'ladi $y = y(t)$. U ular orasida yagona, aniq, xususiy holdagi bittasini ajratib olish uchun yechimda qo'shimcha talablar qo'yiladi. Ko'p hollarda Koshi masalasi qo'yiladi: differensial tenglamaning $y = y(t)$ yechimlari orasida shunday yechimni topish kerakki, u berilgan argumentda aniq qiymatga ega bo'lishi kerak. Ya'ni $t = t_0$ bo'lganda

$$y(t_0) = y_0 \quad (2)$$

tenglik haqiqiy bo'ladi. Shunda (t_0, y_0) – boshlang'ich qiymatlari deyiladi, (2)-shart esa boshlang'ich sharti deyiladi.

Fizika va asrofizikani o‘rganish uchun differensial tenglamalarning ahamiyatini hisobga olgan holda amalda uchraydigan differensial tenglamalarning ayrim turlarini va ularni yechish usullarini aniq misollarda ko‘rib chiqamiz. Ushbu qo‘llanmaning asosiy vazifasi astronomik masalalarini kompyuter yordamida yechishni o‘rgatish bo‘lgani uchun, biz e’tiborimizni disfferensial tenglamalarni sonli yechish usulariga qaratamiz.

Eyler usuli bilan birinchi tartibdagi differensial tenglamani yechib ko‘ramiz. Avval differensialni analitik ko‘rinishidan diskret ko‘rinishiga olib kelamiz

$$\frac{dy}{dt} \approx \frac{\Delta y}{\Delta t} = f(t, y)$$

$\Delta y = y_1 - y_0$ va $\Delta t = t_1 - t_0 = h$ desak, (27) qayta yoziladi

$$\frac{y_1 - y_0}{h} = f(t_0, y_0)$$

Bu yerda h - hisob-kitob olib boriladigan vaqt o‘qi bo‘yicha qadam, odatda u quyidagicha topiladi: $h = (t - t_0)/n$ (t_0 – boshlang‘ich vaqt, t – chegaraviy vaqt, n – bo‘laklar soni).

(1)-dan 1-qadam uchun formula kelib chiqadi:

$$\begin{cases} y_1 = y_0 + h * f(t_0, y_0) \\ t_1 = t_0 + h \end{cases}$$

Uni umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagiga kelamiz:

$$\begin{cases} y_n = y_{n-1} + h * f(t_{n-1}, y_{n-1}) \\ t_n = t_{n-1} + h \end{cases}$$

Ko‘rib turibmizki, oddiy differensial tenglama chiziqli tenglamalar sistemasi ko‘rinishigacha soddalashtirildi. Bu tenglamalar sistemasi yordamida Koshi masalasini bemalol yechsa bo‘ladi. Agarda tenglama ikkinchi tartibli bo‘lsa, (28) ga yana bitta had qo‘shiladi:

$$\begin{cases} y'_n = y'_{n-1} + h * f(t_{n-1}, y_{n-1}, y'_{n-1}) \\ y_n = y_{n-1} + h * y'_n \\ t_n = t_{n-1} + h \end{cases}$$

Runge-Kutta usuli

Vaqt bo‘yicha qadamni belgilaymiz. Uning uchun vaqt bo‘yicha berilgan intervalni mayda qadamlarga bo‘lamiz. Oldingi misoldek: $\Delta t = h = (t - t_0)/n$, bu yerda t_0 – boshlang‘ich shartidagi vaqt, t – chegaraviy vaqt, n – bo‘laklar soni.

Birinchi tartibdagи differrensial tenglama uchun

$$y' = f(t, y)$$

$$t_k = t_0 + k \cdot h$$

$$k = 1, 2, \dots, n$$

$$y_{k+1} = y_k + (p_1 + 2p_2 + 2p_3 + p_4)/6$$

$$p_1 = f(t_k, y_k) \cdot h$$

$$p_2 = f\left(t_k + \frac{h}{2}, y_k + \frac{p_1}{2}\right) \cdot h$$

$$p_3 = f\left(t_k + \frac{h}{2}, y_k + \frac{p_2}{2}\right) \cdot h$$

$$p_4 = f(t_k + h, y_k + p_3) \cdot h$$

Ikkinchи tartibdagи differrensial tenglama uchun

$$y'' = f(t, y, y')$$

$$y = f(t_k) = y_k$$

$$y'_{k+1} = y'_k + \frac{1}{6}(p_1 + 2p_2 + 2p_3 + p_4)$$

$$y_{k+1} = y_k + y'_k * h + \frac{1}{6}(p_1 + p_2 + p_3) * h$$

$$p_1 = f(t_k, y_k, y'_k)h$$

$$p_2 = f\left(t_k + \frac{h}{2}, y_k + y'_k \frac{h}{2}, y'_k + \frac{p_1}{2}\right)h$$

$$p_3 = f\left(t_k + \frac{h}{2}, y_k + y'_k \frac{h}{2} + \frac{k_1}{4}h, y'_k + \frac{p_2}{2}\right)h$$

$$p_4 = f\left(t_k + h; y_k + y'_k h + \frac{k_2}{2}h, y'_k + p_3\right)h$$

Differensial tenglamalarni sonli yechish uchun yana qator usullar ishlab chiqilgan. Ammo shu mavzuni fan doirasida tushunib olish uchun yuqorida ko‘rsatilganlari yetarlidir. Ularni aniq misollarga qo‘llab ko‘ramiz:

1) Tenglama $y' = t$, boshlang‘ich sharti $y(0) = 0$. Topish kerak $y(1) = ?$ Birinchi navbatda, boshlang‘ich shartlarini kiritamiz $y(a) = y$, hisoblash $b = 1$ gacha davom etadi. Eyler usuli bilan javobni topamiz:

clear

% Boshlang‘ch shartlarini kiritamiz.

% Funksiya qiymatlarini massiv ko‘rinishida beramiz

$a = 0$; $y(1) = 1$; $t(1) = a$;

% Argumentni chegara qiymatini kiritamiz

$b = 1$;

% Qadamlar sonini belgilaymiz

$k = 10$;

% Hisoblash qadamini topamiz

```

h = (b-a) / k;
% For sikli yordamida Eyler usulini qo'llaymiz
% Y funksiyaning birinchi qadamdagi qiymat ma'lum bo'lgani
% sababli hisoblashlar n = 2 qadamdan boshlanadi.
% Qdamlar soni n bo'lsa, tugunlar soni n + 1 bo'ladi
for n=2:k+1
    % (28) - formulani kiritamiz
    y(n) = y(n-1) + h * t(n-1);
    t(n) = t(n-1) + h;
    fprintf('y(%3.3f) = %3.3f \n', t(n),y(n));
end
fprintf('Natijada y(%3.5f) = %3.4f \n', t(n),y(n));

```

Bu dasturni ishlatsak, quyidagi natija chiqadi:

```

>> misol_16
y(0.100) = 1.000
y(0.200) = 1.010
y(0.300) = 1.030
y(0.400) = 1.060
y(0.500) = 1.100
y(0.600) = 1.150
y(0.700) = 1.210
y(0.800) = 1.280
y(0.900) = 1.360
y(1.000) = 1.450

```

Natijada $y(1.00000) = 1.4500$

Funksiyaning qiymati $y(1) = 1.45$ bo'ldi. Ammo "Differensial tenglamalar" fanidan bu qiymat $y(1) = 1.50$ bo'lishi kerakligi bilamiz. Bunday farq nimadan paydo bo'ldi? Gap shundaki, sonli usullar xar doim yaqinlashgan natijani beradi va u hisoblash qadaming kattaligiga bog'liq. Shu qadam qancha kichik bo'lsa, natija shuncha aniq bo'lib chiqadi. Berilgan misolda $k = 100$, $k=1000$ deb ko'rsangi, natija xaqiqiy qiymatga yaqinlashib kelaveradi.

$k = 100; \%bo'lsa$

Natijada $y(0.00000) = 1.49500$

$k = 1000; \%bo'lsa$

Natijada $y(0.00000) = 1.49950$

Boshqa misollarni ko'ramiz. Hosilada t argumentidan boshqa o'zgaruchilari ishtirok etishi mumkin: $y' - t = -y$, $y(0) = 1$, $y(1) = ?$. Bunday turdagи tenglamalarni $y' = f(t, y)$ ko'rinishiga keltiramiz $y' = t - y$. Bu yerda $a = 0$, $b = 1$ va boshlang'ich $y = 1$.

```

a = 0;      b = 1;
y(1) = 1;  t(1) = a;
k = 1000;
h = (b-a) / k;
for n=2:k+1
    y(n) = y(n-1) + h * (t(n-1)-y(n-1));
    t(n) = t(n-1) + h;
%fprintf('y(%3.4f) = %3.4f \n', t(n),y(n));
end
fprintf('Natijada y(%3.5f) = %3.4f \n', t(n),y(n));

```


>> misol_16
Natijada $y(2.00000) = 0.7354$

Differensial tenglamani sonli yechganda, berilgan hosilani funksiya ko‘rinishida ham bersa bo‘ladi: $y' = 2xy$, $y(0) = 1$, $y(1) = ?$. Shu bilan birga topmoqchi bo‘lgan funksiyamizning vaqt bilan o‘zgarishi grafigini ham chizsak bo‘ladi.

```

a = 0; b = 1; y(1) = 1; t(1) = a;
k = 10000; h = (b-a) / k;
for n=2:k+1
    y(n) = y(n-1) + h * func_01(t(n-1),y(n-1));
    t(n) = t(n-1) + h;
%fprintf('y(%3.4f) = %3.4f \n', t(n),y(n));
end
fprintf('Natijada y(%3.5f) = %3.4f \n', t(n),y(n));
plot(t,y,'o-'); grid on; xlabel('Vaqt t'); ylabel('Funksiya y(t)');
function yf = func_01(xx,yy)
    yf = 2*xx*yy;
end

```



Ikkinchi tartibdagi differensial tenglamalarni yechganda, sikda yana bitta had qo‘shiladi, xolos. $y'' = xe^{-x}$, $y'(0) = -2$, $y(0) = 3$, $y(1) = ?$

```

a = 0;      b = 1;
t(1) = a;
v(1) = -2; y(1) = 3;

```

```

k = 10000; h = (b-a) / k;
for n=2:k+1
    v(n) = v(n-1) + h * func_01(t(n-1));
    y(n) = y(n-1) + h * v(n-1);
    t(n) = t(n-1) + h;
%fprintf('y(%3.4f) = %3.4f \n', t(n),y(n));
end
fprintf('Natijada y(%3.5f) = %3.4f \n', t(n),y(n));

function yf = func_01(xx)
    yf = xx*exp(-xx);
end

```

Differensial tenglamalarni yechganda, ko'rsatilgan misollarda qizil rang bilan belgilangan joylarni berilgan masalaga moslashtirib o'zgartirsangiz yetarlidir.

MATLABda differensial tenglamalarni turli operatorlar yordamida yechsa bo'ladi: ode45, ode23, ode113, ode23s va boshqalar. Ular Runge-Kutta, Eyler, Adams, Rozenbrok usullariga asoslangan. Tenglama $y' = t^2/2 + y$, $y(0) = 0$, $y(2) = ?$ bo'lsa, uni quyidagicha yechsa bo'ladi

```

t_limits = [0 2];
y_init = 0;
[t,y] = ode45(@(t,y) t^2 /2 + y, t_limits, y_init);
y(length(t))
plot(t,y, 'bo'); grid on;

```

Bu yerda $t^2 /2 + y$ tenglamaning ko'rinishi, t_limits – vaqt bo'yicha chegaraviy qiymatlari, y_init – funksiyaning boshlang'ich qiymati. Ko'rsatilgan operatorlarni chuqurroq o'rganish uchun maxsus adabiyotlardan foydalanishni tavsiya qilinadi.

Mexanik harakatlarni modellashtirish

Bu paragrafda mexanikada va umuman fizikada uchraydigan harakatlarni modellashtirib, jismlarning fazodagi harakatini ko'rib chiqamiz. Shunda mexanika masalalarida ko'p uchraydigan balandlikdan gorizontal hamda gorizontga burchak ostida otilgan jismlarning harakatlarini misol qilib ko'ramiz.

Modellashtirishda, masalaning shartiga qarab, ba'zi muhim

shartlarni inobatga olish kerak bo‘ladi: dunday harakatlarni ifodalash uchun ikkita x va y koordinatalari talab etiladi. Harakat shu tekislikda yuz beradi. Havoning qarshiligini inobatga olmaymiz, shuning uchun tortishish kuchidan boshqasi ishtirok etmaydi. Harakat Yer sathiga yaqin bo‘lgani uchun tezlanishni erkin tushish tezlanishiga teng $a = g$ deb olsa bo‘ladi.

Balandlikdan gorizontal otilgan jismning ikkita o‘q bo‘yicha harakatlanishi tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{cases} v_x = v_0 \\ v_y = -gt \\ x = v_x t = v_0 t \\ y = y_0 - \frac{gt^2}{2} \end{cases} \quad (3)$$

Bunday harakat uchun boshlang‘ich shartlar: $x(0) = 0$ koordinatalar sistemasi boshidan boshlanadi; $y(0) = y_0 = h$ - balandlik; $x'(0) = v_0$; $y'(0) = 0$. Hizsoblashlarni jism Yer sathiga yetganda, ya’ni unining joriy balandligi $y = 0$ bo‘lganda to‘xtatamiz. Shu harakatni aks etadigan dastur, izohlari bilan birga, quyida keltirilgan:

```
clear; close all;
```

```
% Jismning boshlang‘ich koordinatalari va tezligi
```

```
x_start = 0; y_start = 90; v_start = 10;
```

```
% Hisoblashni tugatish sharti
```

```
y_end = 0;
```

```
t = 0; dt = 0.01; % Boshlang‘ich vaqt va hisoblash intervali
```

```
figure; % Grafik yangi oynada ochilishini ko‘rsatamiz
```

```
yline(1,’k-’,’LineWidth’,5); % Vertikal chizig‘i belgilanadi
```

```
xline(1,’b-’,’LineWidth’,5); % Gorizontal chiziq bilan Yer sathini ko‘rsatamiz
```

```
axis([-60 60 -10 100]); % Grafikning chegaralari belgilanadi
```

```
hold on; grid on;% Yangi nuqtalarni qo‘shiladi hamda setka kiritildi
```

```
xlabel(‘Yer sathi’); ylabel(‘Balandlik’); ax = gca; ax.FontSize = 12; % Yozuvlar
```

```

y = y_start; % Vertikal o'qi bo'yicha o'zgarishi kiritildi
k=0; % Hisoblash indeksi
g = 10; % Erkin tushish tezlanishi
m = 1; % Jismning massasini ham kirtsса bo'ladi

% Hisoblashni to'xtash shartini kiritamiz,
% jism Yer sathiga yetganda harakat to'xtaydi
while y >= y_end %shunda hisoblash ham to'xtatiladi
    k = k +1;
    % har qadamda yangi koordinatlar, tezliklar va vaqt hisoblanadi
    x_new(k) = v_start * t; y_new(k) = y_start - g * t^2/2 ; t_new(k) =
t;
    vx_new(k) = v_start; vy_new(k) = g*t;
    % Yangi koordinatalarni grafikda ko'rsatiladi
    plot(x_new(k),y_new(k),'o','MarkerSize',6,'MarkerFaceColor','g')

    % Shu siklda jismning tezligi va energiyasini topsa bo'ladi
    V_new(k) = sqrt(vx_new(k)^2 + vy_new(k)^2 );
    P_new(k) = y_new(k) * m * g; K_new(k) = m * V_new(k)^2 * 0.5;
    E_new(k) = K_new(k) + P_new(k);

    t = t + dt; % Vaqt o'zgardi
    y = y_new(k); % Balandlik belgisi o'zgarishi ko'rsatiladi

    pause(0.05); % Keyingi siklga vaqtini kechikib (sekundda) o'tsa bo'ladi
end

% Natijalar Buyruqlar Oynasida ko'rsatiladi
fprintf('\n T = %2.4f sekund, X = %2.4f metr, Y = %2.4f metr \n', t,
x_new(k), y_new(k));
% Tushish vaqtini grafikda ko'rsatsa bo'ladi
text(-40,60, 'T = ' + string(t) + ' sek','FontSize', 15)


```

Asosiy harakatlanishdan tashqari, harakatni tavsiflovchi boshqa kattaliklarning o'zgarishlarini ham ko'rsa bo'ladi. Buning uchun grafiklarga yangi oyna ochib, istalgan kattaliklarni tahlil qilish mumkin.

Masalan:

figure	
subplot(2,2,1)	
plot(t_new, y_new, 'o','MarkerSize',6)	
grid on	

	subplot(2,2,3)
	plot(t_new, K_new, 'o','MarkerSize',6)
	grid on



Natijada ikkita rasm paydo bo‘lib, u yerda ko‘rsatilgan grafiklar chiziladi.

Gorizontga burchak ostida otilgan jismning harakati tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{cases}
 v_x = v_0 \cos \alpha \\
 v_y = v_0 \sin \alpha - gt \\
 x = v_x t = v_0 t \cos \alpha \\
 y = v_y t - \frac{gt^2}{2} = v_0 t \sin \alpha - \frac{gt^2}{2}
 \end{cases} \quad (4)$$

Bunday harakat uchun boshlang‘ich shartlar: $x(0) = y(0) = 0$ koordinatalar sistemasi boshidan boshlanadi; $x'(0) = v_0 \cos \alpha$; $y'(0) = v_0 \sin \alpha$. Hisoblashlarni jism Yer sathiga qayta yetganda, ya’ni unining joriy balandligi ikkinchi marta $y = 0$ bo‘lganda to‘xtatiladi:

```

clear; close all;
x_start = 0; y_start = 1; % Jismning boshlang‘ich vaziyatlari belgilanadi
v_start = 45; alpha = 30; % Jismning boshlang‘ich tezligi va burchagi
y_end = -0.01; % Hisoblashni tugatish sharti
t = 0; dt = 0.01; % Boshlang‘ich vaqt va hisoblash intervali

```

```

figure ; % Grafik yangi oynada ochiladi
yline(1, 'k-', 'LineWidth', 5); xline(1, 'b-', 'LineWidth', 5);
axis([-100 100 -10 50]); % Grafikning chegaralari belgilanadi
hold on; grid on;
xlabel('Yer sathi'); ylabel('Balandlik');
ax = gca; ax.FontSize = 12;
y = y_start; k=0; % Hisoblash indeksi
g = 10; m = 1; % Erkin tushish tezlanishi va jismning massasini ham
kiritsa bo'ladi
while y >= y_end
    k = k +1;
    % Har qadamda yangi koordinatlar va vaqt hisoblanadi
    vx_new(k) = v_start * cosd(alpha); vy_new(k) = v_start * sind(alpha)
    - g * t;
    v_new(k) = sqrt(vx_new(k)^2 + vy_new(k)^2);
    x_new(k) = vx_new(k) * t; y_new(k) = vy_new(k) * t;
    t_new(k) = t;
    plot(x_new(k),y_new(k), 'o', 'MarkerSize', 6, 'MarkerFaceColor', 'g')
    P_new(k) = y_new(k) * m * g; K_new(k) = m * v_new(k)^2 * 0.5;
    E_new(k) = K_new(k) + P_new(k);
    t = t + dt; % Vaqt o'zgardi
    y = y_new(k); % Balandlik belgisi o'zgarishini ko'rsatdik
    pause(0.02);
end
fprintf('\n T = %2.4f sekund, X = %2.4f metr, Y = %2.4f metr \n', t,
x_new(k), y_new(k));

```

Yuqoridagi misolga o'xshab, bu yerda ham grafiklarda boshqa istalgan kattalikning o'zgarishini ko'rsa bo'ladi. Buning uchun qo'shimcha buyruqlarni kiritish kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Fizika va astronomiyada integrallashning mohiyati qanaqa?
2. Integrallash ta'rifini keltiring
3. Integrallashning fizik ma'nosi qanaqa?
4. Sonli integrallashning qanaqa usullari bor?
5. Integrallash va differensial tenglamani yechishda aniqlik qaysi kattalikga bog'liq?
6. Simpson usulini qo'llash kerk bo'lsa, qaysi kutubxonaga burojaat qilinadi?

7. Cheksizlikni qaday belgilasa bo'ladi?
8. Oddiy differensial tenglamaning tartibi nima bilan belgilanadi?
9. Differensial tenglamalarni sonli yechish usullarining qaysilarin bilasiz?
10. Fizik jarayonlarga tegishli differensial tenglamalarning qanday misollari bor?

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG'ULOT. Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari

Reja:

1. Dasturiy ta'minot: Spyder/MatlabWork vositalari va tillari.
2. Ularni kompyuterda o'rnatish yo'llari: Anaconda, Python for data science. Python redaktorlarini (Spyder, PyCharm, VS Code) o'rnatish.

Bu yerda oddiy matematik va fizik masalalarni yechish kerak bo'ladi. O'zizni tekshirish uchun qavslarda yechimlar ham berilgan. Masalani yechish uchun biron bir formula kerak bo'lib qolsa, uni o'zingiz topishiz kerak bo'ladi. Spyder dasturnida algatirimlang.

1	a va b nomli ikkita haqiqiy son berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi hamda nisbatni toping.
2	$\frac{ a - b }{1 + ab }$ hisoblang. ($a = 5, b = -9$ javob = -0.0870 ; $a = 0.5, b = -0.9$ javob = -0.2759)
3	Kubning tomoni berilgan. Uning hajmini va tomonlarining yuzini toping ($a = 5$, javob: hajm = 125 , tomonlar yuzasi = 150)
4	Toshning h metr balandlikdan tushish vaqtini toping. ($g=10, h = 10$ bo'lsa $t = 1.41$; $h = 500$ bo'lsa $t = 10$)
5	$a = \frac{\sqrt{ x-1 } - \sqrt[3]{ y }}{1 + \frac{x^2}{3}}$ $(x = 3, y = -5, a = -0.0739; x = -1.3, y = 0.45, a = 0.4799)$

6	$b = x(\arctan z + e^{-(x+1)})$ ($x = 2, z = 0.4, b = 0.8606; x = 0.2, z = -0.4, b = -0.0159$)
7	$a = \frac{3 + e^{y-1}}{1 + x^2 y - \tan z }$ ($x = 2, y = 0.4, z = 0.1, a = 1.6141; x = -0.6, y = 1.2, z = -0.2, a = 2.8050$)
8	$b = 1 + y - x + \frac{(y - x)^2}{2} + \frac{(y - x)^3}{3}$ ($x = 0.2, y = -1.2, b = 2.4653; x = -1.2, y = 0.2, b = 4.2947$)
9	$a = (1 + y) \frac{x + y/(x^2 + 4)}{e^{-x-2} + 1/(x^2 + 4)}$ ($x = -1.2, y = 0.2, a = -2.2047; x = 0.2, y = -1.2, a = 0.0542$)
10	$b = \frac{1 + \cos(y - 2)}{x^2/3 + \cos z}$ ($x = -1.2, y = 0.2, z = 1.1, b = 0.8278; x = 1.2, y = 2.2, z = -0.1, b = 1.3424$)
11	$a = y + \frac{x}{y^2 + \left \frac{x^2}{y+2}\right }$ ($x = 1.2, y = 2.2, a = 2.4315; x = -0.2, y = 0.2, a = -3.2375$)
12	$b = (1 + \tan^2 z/2)$ ($z = 1.2, b = 4.3080; z = 2.2; b = 1.9437; z = -0.2; b = 1.0205$)
13	$a = \frac{2 \cos(x - \pi/6)}{0.5 + \sin^2 y}$ ($x = -0.2, y = 0.2, a = 2.7784; x = -1.2, y = 0.2, a = -0.5643$)
14	$b = 1 + \frac{z^2}{3 + z/5}$ ($z = 1.2, b = 1.4444; z = -1.2, b = 1.5217; z = -2.2; b = 2.8906$)
15	Kvadratning tomoni berilgan. Uning yuzini va perimetrini toping.
16	To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari berilgan. Uning gipotenuzasi, perimetri va yuzini toping

Bu yerda oddiy fizik masalalar yechimini oddiy chiziqli algoritmlar asosida tuzish kerak bo‘ladi. Masalani yechish uchun biron bir formula kerak bo‘lib qolsa, uni o‘zingiz topishingiz kerak bo‘ladi.

1	t_1 haroratli suvning hajmi v_1 . U haroratu t_2 бўлган v_2 hajmdagi suv bilan aralashtirildi. Natijada, hosil bo‘lgan aralashmaning hajmini va haroratini toping.
2	Uchta qarshilik R_1, R_2, R_3 bir-biriga parallel ulangan. Ularning umumiy qarshiligini toping.
3	Uchta qarshilik R_1, R_2, R_3 bir-biriga ketma-ket ulangan. Ularning umumiy qarshiligini toping.
4	Bir-biridan r masofada joylashgan m_1 va m_2 massalar orasidagi F tortishish kuchini toping.
5	Koordinatalari x_1, y_1 va x_2, y_2 bo‘lgan ikkita nuqta orasidagi masofani toping.
6	Uchburchak uchlari koordinatalar bilan berilgan. A) uchburchakning perimetrini va B) yuzini hisoblab topish kerak.
7	x haqiqiy son berilgan. Faqat ko‘paytirish, qo‘shish, ayrish va bo‘lish operatorlardan foydalanib, quyidagilarni hisoblang $1 - 2x + 3x^2 - 4x^3$ $1 + 2x + 3x^2 + 5x^3$
8	Jism yo‘lning bиринчи yarimini $t_1 = 2$ sek davomida, иккичисини $t_2 = 8$ sek davomida bosib o‘tdi. Agar yo‘lning uzunligi $s = 20$ metr bo‘lsa, o‘rtacha tezli $\langle v \rangle$ aniqlansin.
9	Tosh $h = 1200$ metr balandlikdan tushmoqda. Tosh tushish vaqtining so‘ngi sekundida qanday s yo‘lni o‘tadi?
10	Yuqoriga tik otilgan jism $h = 8.6$ metr balandlikda $\Delta t = 3$ sek oraliq bilan ikki marta bo‘ldi. Havoning qarshiligini hisobga olmay, otilgan toshning boshlang‘ich tezligini hisoblang.
11	Nuqta $R = 10$ metr radiusli aylana yoyi bo‘ylab harakatlanmoqda. Vaqtning biror momentida nuqtaning normal tezlanishi $a_n = 4.9$ metr/sek ² ; shu momentda to‘la va normal tezlanish vektorlari $\varphi = 60^\circ$ burchakni tashkil qiladi. Nuqtaning tezligi v va tangensial tezlanishi a_t topilsin.
12	Minoradan gorizontal yo‘nalishda tosh otdilar. Tosh $t = 2$ sek dan keyin minora asosidan $S = 40$ metr masofada yerga tushdi. Toshning boshlang‘ich v_0 va oxirgi v tezliklari aniqlansin
13	Yer sirtidan tik yuqoriga qarab uchirilgan $m = 1$ tonnaga teng massali fazoviy kema $a = 2g$ tezlanish bilan ko‘tarilmoqda. Soplidan otilib chiqayotgan gaz oqimining tezligi $v = 1200 \text{ m/s}$. Sarflanayotgan yoqilg‘i miqdori Q_m topilsin.

14	Ikkita $m_1 = 10 \text{ kg}$ va $m_2 = 15 \text{ kg}$ massali yuklar bir-biriga tegadigan qilib, uzunligi $L = 2$ metr ipga osilgan. Kichik yuk $\varphi = 60^\circ$ burchakka og‘dirib qo‘yib yuborildi. Yuklarning urilishini noquyishqoq deb hisoblab, urilishdan so‘ng ikkala yukning ko‘tarilish balandligi h aniqlansin.
15	Marsning yulduz davri 1.88 Yer yili bo‘lsa, uning sinodik davri qancha?
16	Qo‘shaloq yulduz $\alpha - Cen$ aylanish davri 79 yil . Orbitasining katta yarim o‘qi $17.6''$, yillik parallaks yesa $0.75''$ tashkil etadi. Yulduz komponentlarining massalarini va massalari yig‘indisini alohida aniqlang (ular massa markazidan 3:4 masofalarga ajratilgan deb oling).
17	Saturnning massasini aniqlang (Yer massasi birligida). Saturn yo‘ldoshi Titan undan 1220 ming km masofada joylashgan va 16 kunlik davr bilan uning atrofida aylanadi.
18	Yangi yulduz yorqinlanishi vaqtida ravshanligi 3.2^m yulduz kattaligiga yetadi. Bu turdagи yangi yulduzlar -8^m absolyut kattalikka ega ekanligi ma’lum bo‘lsa, unga bo‘lgan masofani hisoblang.
19	Elektron $v = 0.6 \cdot c$ tezlik bilan harakatlanmoqda. Elektronning relyativistik impulsi r aniqlansin.

2-AMALIY MASHG'ULOT: Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatorlari bilan ishlash misollari

Reja

1. Tarmoqlanuvchi algoritmlar, if va else shart operatrlari bilan ishlash misollari.
2. Chala tarmoqli va to‘liq tarmoqli algoritmlar.
3. Munosabatlar, tanlash va solishtirish operatorlari bilan ishlash.
4. Mantiqiy operatsiyalar.
5. Sikllar bilan ishlash: sikllar va siklik operatorlar.
6. Sikllar yordamida summa va ko‘paytmalarni topish.
7. Teylor qatorlari asosida funksiyalarning qiymatini hisoblash.


Bu yerda munosabatlar va shartli operatorlar yordamida sodda mantiqiy masalalarini yeching.


1	$z + a = 0$ ko‘rinishdagi tenglamaning yechimini dasturlang ($a - ma'lum$ deb oling)
2	$ax^2 + bx + c = 0$ ko‘rinishdagi kvadrat tenglama yechimini beradigan dastruni tuzing. Diskriminantning nolga nisbatan hamma holatlarini inobatga oling.
3	$ax^3 + bx^2 + cx + d = 0$ ko‘rinishdagi kubik tenglama yechimini beradigan dasturni tuzing. Diskriminantning nolga nisbatan hamma holatlarini inobatga oling.
4	x va y sonlar berilgan bo‘lsin. Ular orasida eng kattasini – $\max(x, y)$ va eng kichigini – $\min(x, y)$ toping.
5	x, y va z sonlar berilgan bo‘lsin. Ular orasida eng kichigini – $m \in (x, y, z)$ toping.
6	x, y va z sonlar berilgan bo‘lsin. Ular orasida eng kattasini – $\max(x, y, z)$ toping.
7	x, y va z sonlar berilgan bo‘lsin. Ular kombinatsilari orasida – $\max(x + y + z, xyz)$ toping.
8	x, y va z sonlar berilgan bo‘lsin. Ular kombinatsilari orasida – $m \in \min^2\left(x + y + \frac{z}{2}, xyz\right) - 1$ toping.
9	Mantiqiy ifodaning $x^2 + y^2 \leq 4(x = 1, y = -1)$ qiymatini toping.
10	Mantiqiy ifodaning $x^2 - y^2 \leq 3(x = -1, y = 3)$ qiymatini toping.
11	Mantiqiy ifodaning $x * y > 0(x = 1, y = -2)$ qiymatini toping.


12	Mantiqiy ifodaning $x * y \neq 0 (x = -1, y = -2)$ qiymatini toping.		
13	Ixtiyoriy butun sonning juft yoki toqligni aniqlang, 3 songa karra ekanmi, yoki yo‘qligini aniqlab bering.		
14	Ixtiyoriy butun son 3 soniga karra ekanmi, yoki yo‘qligini aniqlab bering.		
15	Ixtiyoriy butun son 5 songia karra ekanmi, yoki yo‘qligini aniqlab bering.		
16	Ixtiyoriy son 3 xonalimi yoki yo‘qligini aniqlang		
17	Ixtiyoriy son 4 xonalimi yoki yo‘qligini aniqlang		
18	x va y sonlar sinov nuqtasining dekart koordinatalari bo‘lsin. Shu nuqta radiusi r ixtiyoriy bo‘lgan va markazi koordinatlar sistemasi boshida yotgan aylana ichida yoki tasqarisidaligini aniqlaydigan algoritm va dastur tuzing.		
19	x va y sonlar sinov nuqtasining dekart koordinatalari bo‘lsin. Shu nuqta radiusi r ixtiyoriy bo‘lgan va markazi ixtiyoriy joyda yotgan aylana ichida yoki tasqarisidaligini aniqlaydigan algoritm va dastur tuzing.		
20	Katta va kichik yarimo‘qlari a va b bo‘lgan ellipsoid bo‘lsin. (x, y) koordinatali sinov nuqtasi shu shakl ichidami yoki yo‘qmi degan savolga javob beradigan dastur tuzing.		
21	<p>$Y = 2 - 1.25X$</p>	22	<p>$Y = X^2 - 5$</p>

23		Sinov nuqtaning dekart sistemasidagi koordinatalari (x, y) bo'lsin. Shu nuqta berilgan chiziqlarga nisbatan yuqori yoki quyi yarim tekisligida joylashganligini aniqlang.
24	switch ... case mantiqiy operatori yordamida oyning raqamiga qarab, nomini beradigan dastruni tuzing.	
25	Ilgari soliqlar stavkasi oylik maoshning miqdoriga qarab o'zgarar edi. Shunda eng kichik ish haqqidan soliq olinmasdi, 1 baravaridan 5 baravarigacha soliq stavkasi 7.5% tashkil qilar edi. 5 baravaridan 10 baravarigacha – 16.5%, undan ko'pidan 22.5% soliq olinardi. Ixtiyoriy oylik maoshdan kelib chiqib, soliq stavkasini hisoblaydigan dastruni tuzing. Eng kichik ish haqini ommabop ma'lumot manbalaridan bilib olishingiz mumkin.	

2-Topshiriq. Bu yerda mantiqiy operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechish kerak bo'ladi.







Masalalarni yeching. x, a, b kabi kattaliklarni o‘zingiz tanlab kriting

17 $y = \begin{cases} \cot(x^2 e^{3k}) + \ln|r+x| & \text{agar } x = rs \\ \sqrt[5]{x^2} + \sqrt{|\arcsin k|} & \text{agar } x > rs \\ \arctan(kx + \tan(rs)) & \text{agar } x < rs \end{cases}$

18 $y = \begin{cases} \sin e^{a+b} + x^2 & \text{agar } a+b > x \\ \arctan(abc) + \sqrt[3]{x} & \text{agar } a+b = x \\ \arcsin(\cos^2(\sqrt{|x|})) & \text{agar } a+b < x \end{cases}$

19 $y = \begin{cases} 0 & \text{agar } x \leq 0 \\ x^2 - x & \text{agar } 0 < x \leq 1 \\ x^2 - \sin \pi x^2 & \text{boshqa hollarda} \end{cases}$

20 $y = \begin{cases} abx - (\cos zx)^2 & \text{agar } x \leq 3,5a \\ (a-x)^2 - \ln(z+x) & \text{agar } 3,5a \leq x \leq b \\ \sqrt{bx - a + zx^2} & \text{agar } x > b \end{cases}$

21 $y = \begin{cases} \ln|mx + n| & \text{agar } x^2 > m + n \\ e^{\cos|mx-n|} & \text{agar } x^2 = m + n \\ \sqrt[3]{k^2 + \cos^2 x} & \text{agar } x^2 < m + n \end{cases}$

